

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDİT» FAKUL'TETI

«BUXGALTERIYA HISOBİ» KAFEDRASI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILADI»
Kafedra mudiri _____prof. R.Xolbekov
«____» _____2011 y.

OATB O'zbekiston-Germaniya "Savdogarbank" amaliyot boshqarmasida
xarajatlar hisobini tashkil etishda ustuvor vazifalar

mavzusi bo'yicha yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etiladi»
Ilmiy rahbar: _____
dots. Abduvaxidov F
«____» _____2011 y.

Bajardi: «Buxgalteriya hisobi va
audit» ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 4-
kurs talabasi _____
Suleymanxodjaeva Azizaxon
Anvarxodjaevna

T O S H K E N T – 2011

MUNDARIJA

Kirish	3
1-Bob. Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari.....	8
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida tijorat banklarining tutgan o'ri hamda ahamiyati	8
1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari	13
1.3. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar	16
2-Bob. AT «Savdogarbanki» amaliyot boshqarmasida bank xizmatlari bo'yicha xarajatlar hisobining hozirgi holati	26
2.1. AT «Savdogarbank»ning amaliyot boshqarmasida xarajatlarning dastlabki hisobi	26
2.2. Bankning amaliyot boshqarmasida xarajatlar hisobi va uning amaliyoti	32
2.3. Bankning amaliyot boshqarmasida ko'rsatilgan xizmatlardan ko'rilgan zararlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish	38
3-Bob. AT «Savdogar bank»ning amaliyot boshqarmasida xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish masalalari	42
3.2. Bankning amaliyot boshqarmasida operatsion xarajatlar hisobi va ularni takomillashtirish masalalari.....	42
3.3. AT «Savdogarbanki» amaliyot boshqarmasida xizmatlar bo'yicha moliyaviy natijalar hisobi va uni mukammallashtirish masalalari	46
Xulosa va takliflar	50
Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati.....	53

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, tijorat banklari tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Respublikamizda tijorat bank tizimining uzluksiz rivojlanishi bozor munosabatlari sharoitidagi ob'ektiv zaruriyatdir. Shu o'rinda, Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek «...2010 yilda tijorat banklarining jami kapitalini kamida 20%ga oshirish va yaqin 2 yilda jami banklar kapitali darajasini YaIMga nisbatan 10%ga etkazish ko'zda tutilgan edi. Shu bilan birga 2010 yilda ham tijorat banklari tomonidan yana 250 mlrd. so'mlik qo'shimcha aktsiyalar muomalaga chikarilib, banklar ustav kapitallarini oshirilish rejasi belgilab berilgan edi. 2010 yilda tijorat banklarining jami kapitali 36 foizga ortdi va banklarimiz erishgan 23 foiz miqdoridagi kapitalning etarlilik darajasi dunyoda qabul qilingan xalqaro Bazely-2 standartlari bo'yicha begilangan me'yordan banklarimizning kapitallarini etarlilik darajasi 3 barobardan ko'pdir. Faqat o'tgan yilning o'zida depozitlar hajmi 1,5 barobardan ziyod oshdi. So'nggi ikki yilda tijorat banklarining umumiy kapitali 2 barobar ko'paydi va bugungi kunda 3 trln. so'mdan oshib ketdi. Natijada, tijorat banklarining jami kapitali 2009 yilga nisbatan 1,4 barobar oshib, 2011 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 4,1 trln. so'mni tashkil etdi. Buni 2010 yil avgustida «Moody's» xalqaro reyting agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish istiqbollari «barqaror» deb baholangani hamda mamlakatimizning 15 ta tijorat banki faoliyati «Fitch ratings», «Moody's» va «Standard & Poor's» kabi etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining «barqaror» degan yuqori reyting bahosini olganliklari ham tasdiqlab turibdi»¹.

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda bank tizimi o'z taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichini boshidan kechirmoqda. Bu bosqich qo'yilgan vazifalarni hal etishda bank salohiyatini va ta'sirining o'sishi bilan bog'liqdir. So'nggi yillarda bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirish borasida amalga

¹ Ислом Каримов. “2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси”. – Т.: Халқ сўзи, 2011 йил, 22 январь.

oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklarning umumiy kapitali, aktivlari va kapital qo'yilmalari, shuningdek, depozit bazasining kattaligi ko'rsatkichlari yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi².

Tijorat banklarining bunday ijobiy natijalarga erishishida bevosita buxgalteriya hisobining nazariy hamda uslubiy asoslarining yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan tijorat banklarida buxgalteriya hisobining qonuniy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab oldilar. Natijada, tijorat banklarida xarajatlar hisobini xalqaro standartlar talablari darajasiga ko'tarish muammolari vujudga keldi. Ushbu muammolar mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo'lsada, lekin bugungi kunda to'laligicha o'z echimiga ega bo'lmaganligi sababli ushbu mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatdi. Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini, uning maqsadi va vazifalarini belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida xarajatlar hisobini tashkil qilish masalalar ko'pchilik iqtisodchi olimlar hamda mutaxassislarning diqqat markazida bo'lgan.

Xususan, banklarda buxgalteriya hisobi muammolari Rossiyalik iqtisodchi olimlar N.L. Marenkov, T.N. Malkova, E.P., Kozlova, E.N Nikolaevna, K.G. Parfyonov, O.V. Rojnova, Z.G.Shirinskaya, T.N.Nesterova, N.E.Sokolinskaya, V.S.Gerashenko, V.I.Kolesnikov, L.P.Krolivetskaya kabi olimlarning ilmiy ishlanmalari, darsliklari hamda o'quv qo'llanmalarida o'z ifodasini topgan.

Ushbu mavzuga yaqin bo'lgan muammolar bilan Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan F.Mullajonov, M.Nurmurodov, A.Ibragimov, N.Jo'raev, Z.Mamatov, A.Qodirov, S.Norqobilov, I.Murugova, Sh.Abdullaeva, F.Abduvaxidov, Z. Umarov, N.Navro'zova va boshqa olimlarimizning ilmiy hamda amaliy ishlarida ham o'z ifodasini topgan.

Albatta yuqorida nomlari zikr etilgan barcha iqtisodchi olimlarimizning ilmiy

² ЎзР. Президентининг 2010 йил 6 апрелда “Банк тизимининг молиявий барқарорлигини янада ошириш ва инвестициявий фаоллигини кучайтириш чора- тadbirlari tўғрисида”ги ПҚ-1317- сонли Қарори

ishlari, albatta, ham nazariy ham uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lsada, ularda tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish, shuningdek, ularning auditini xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil qilishda bozor munosabatlarining chuqurlashuvi va mamlakatimiz banklarining jahon iqtisodiyotiga yanada keng integratsiyalashuvi jarayonida vujudga kelayotgan o'zgarishlarning inobatga olinganligidir. Biroq, bank xarajatlari hisobini tashkil qilish masalalari o'z echimini topmaganligidan dalolat berdi. Shu boisdan, mazkur mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyati tug'ildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ilmiy izlanishlar natijasida tijorat banklarida xarajatlar hisobini tashkil qilishdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, ularni takomillashtirish yuzasidan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

- mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslarini tadqiq qilish;
- tijorat banklari faoliyatini umumiy tasniflash va moliyaviy xolatiga baho berish;
- bank xizmatlari bo'yicha xarajatlarning vujudga kelishi, shakllanishi va ularning hozirgi kundagi holatiga baho berish;
- tijorat banklarida foyda va zararlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish tartibini o'rganish;
- tijorat banklarida xarajatlar hisobini tashkil qilish metodikasini tahlil etish;
- tijorat banklarida operatsion xarajatlar hisobini shakllanishini tadqiq etish;
- tijorat banklarida moliyaviy natijalar hisobi va uni mukammallashtirish masalalari bo'yicha tavsiyalar berishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib, AT «Savdogarbank»ning amaliyot boshqarmasida xarajatlar hisobini tashkil qilish va uni takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti sifatida AT «Savdogarbank»ning amaliyot boshqarmasining buxgalteriya hisobi va hisobotlari ma’lumotlaridan keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy natijalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari tadqiq qilindi;
- tijorat banklari faoliyati umumiy tasniflandi va moliyaviy holatiga xolisona baho berildi;
- bank xizmatlari bo’yicha xarajatlarning vujudga kelishi, shakllanishi va ularning hozirgi kundagi holatiga baho berildi;
- tijorat banklarida foyda va zararlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish tartibi o’rganildi;
- tijorat banklarida xarajatlar hisobini tashkil qilish metodikasi tahlil etildi;
- tijorat banklarida bank xizmatlari bo’yicha operatsion xarajatlar hisobi va ularning shakllanishi tadqiq etildi;
- tijorat banklarida moliyaviy natijalar hisobi va uni mukammallashtirish masalalari bo’yicha tavsiyalar berildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy asoslari. Tadqiqot ishida O’zbekiston Respublikasining tijorat banklarida xarajatlar hisobini tashkil etishga asos bo’luvchi qonuniy va me’yoriy hujjatlari, Respublika Prezidentining farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan me’yoriy hujjatlari, banklar faoliyatiga oid Moliyaviy hisobotning xalqaro andozalari (MHXA), banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish bo’yicha mamlakatimiz hamda xorijlik iqtisodchi olimlar asarlari manba bo’lib hisoblandi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda bildirilgan fikrlar tijorat banklarida xarajatlar hisobi va uni takomillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, AT «Savdogarbank»ning amaliyot boshqarmasida buxgalteriya hisobini tashkil etishga yaqindan yordam beradi. Bu o’z navbatida

buxgalteriya hisobining ma'lumotlar berish va auditini o'tkazishda axborot bilan ta'minlanish jarayonini mukammallashtiradi hamda tijorat banklarining moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Amaliyotga tadbiq qilish. Ilmiy ishda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda hamda ularda hisob siyosatini shakllantirishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga «Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi» fanini o'qitishda uslubiy qo'llanma sifatida foydalanilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

1-Bob. Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash sharoitida tijorat banklarining tutgan o'rni hamda ahamiyati

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida davlatimiz rahbari soha rivojiga alohida e'tibor qaratib, 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida so'zlagan ma'ruzasida tijorat banklari tarmog'ini, zamonaviy moliya va soliq tizimini rivojlantirish zarurligini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Davlatimizning o'tgan mustaqil rivojlanish yo'llarida bank tizimini shakllantirishning puxta zamonaviy qonunchilik negizini, jumladan, islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash bo'yicha o'ziga xos mexanizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Nihoyatda qisqa davr ichida bank tizimini tartibga solishga doir muhim qonun va qonunosti hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi³.

Bu har ikkala Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi ikki bosqichli bank tizimining huquqiy poydevorini yanada mustahkamlashga, banklar faoliyatini halqaro andozalar darajasida ta'komillashtirib, bank tizimida islohatlarni yanada chuqirlashtirib borishga asos bo'ldi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini hisobga olib yaratilgan mazkur qonunlar keyinchalik Xalqaro Valyuta jamg'armasi va Jahon banki ekspertlari tamonidan ijobiy baholanishi quvonarli holdir.

Bank tizimini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 197-sonli qarori alohida o'rin tutadi⁴. qarorga asosan Respublika Markaziy banki qoshida Kredit axboroti milliy instituti tashkil etildi. Ushbu tadbir qarzдорlarning kredit tarixiga oid axborot tizimini yaratish va tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni samarali boshqarish yo'lida muhim qadam bo'ldi.

³ Ўзбекистон Республикасининг «Марказий банки тўғрисида»ги Қонун 1995 йил 21 декабр ва «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуни. 1996 йил 25 апрел.

⁴ ЎзР ВМнинг «Қарз олувчиларнинг кредит тарихи тўғрисидаги ахборотни ҳисобга олиш тизimini шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2004 йил 23 апрелдаги 197-сонли Қарори

Agar mustaqilligimizning dastlabki yillarida faqat bir nechta tarmoq banklari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2008 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda tijorat banklarining umumiy soni 35 taga etgan bo'lib, 2 tasi davlat aktsiyadorlik-tijorat banki, 19 tasi aktsiyadorlik-tijorat banki, 5 tasi xorijiy sarmoya ishtirokidagi banklar va 9 tasi esa xususiy banklardir.

Shuningdek, respublikamizning barcha shahar va tumanlarida tijorat banklarining 800 taga yaqin filiallari mavjud bo'lib, ular aholi, karxona va tashkilotlarga sifatli bank xizmati ko'rsatib kelmoqdalar.

Banklar tarmog'ining kengayganligi respublikamiz barcha shahar va qishloqlaridagi aholi, korxona va tashkilotlar o'zi istiqomat qiladigan hamda joylashgan tumandagi yoki boshqa hududda bank bo'limlarida hisobvaraqlarini ochib, uning xizmatlaridan foydalanishlari quvonarli holdir.

Bank tizimini erkinlashtirish va isloh qilishni chuqurlashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida banklarning umumiy kapitali, aktivlari va kredit kuyilmalari sezilarli darajada ortdi. Natijada 2008 yilning boshiga banklarning umumiy kapitali 1.5 trillion so'mga etdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvarida bo'lib o'tgan birinchi qo'shma majlisida hamda 2005 yil 7 fevralda Oqsaroyda hukumat a'zolari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvi chog'ida mamlakatimiz rahbari tamonidan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalari belgilab berildiki, unda qayd etilgan ko'rsatmalar bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish dasturi sifatida qabul qilindi.

2010 yil 6 apreldagi Prezidentimiz tomonidan e'lon qilingan PQ-1317- sonli Qarori⁵ga asosan bank tizimini rivojlantirish va isloh qilishning sifat jihatdan yangi bosqichi boshlandi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimizning ushbu qarori bilan banklarning qator soliqlardan ozod qilinishi ularning moddiy manfaatdorligi, faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligining oshishiga zamin yaratadi.

⁵ ЎзР Президентининг 2010 йил 6 апрелда Ўзбекистон республикаси Президентининг “Банк тизимининг молиявий барқарорлигини янада ошириш ва инвестициявий фаоллигини кучайтириш чора- тadbirlари тўғрисида”ги ПҚ-1317- сонли Қарори

Ko'pchilik mamlakatlar bank tizimining bugungi kundagi asosiy zaif tomoni, ularda bank kapitalining etarli darajada bo'lmashligi yoki to'g'riroq qilib aytadigan bo'lsak, banklarning kapitallashuvi darajasining xalqaro me'yorlarga nisbatan juda past darajada bo'lishidir. Bunday holat esa, mamlakat bank tizimining xalqaro moliya bozoriga kirib borishiga va faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi PQ-670 sonli «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori⁶ va PQ-1317- sonli qarorlariga asosan banklarning minimal ustav kapitali miqdoriga o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu qarorlarga muvofiq yangi tashkil etilayotgan tijorat banklarining minimal ustav kapitali 2011 yilning 1 yanvaridan boshlab quyidagicha miqdorda belgilab qo'yildi:

- tijorat banklari uchun so'm ekvivalentida 10 mln.evro miqdorida;
- xususiy banklar uchun so'm ekvivalentida 5.0 mln.evro miqdorida;
- xorijiy kapital ishtirokidagi banklar uchun so'm ekvivalentida 10 mln.evro miqdorida.

Bunday bank kapitali minimal miqdorining oshirilishi, birinchidan, iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini yanada kengroq qondirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ularning xalqaro moliya bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Bank kapitalining yuqori darajada bo'lishi va uning etarliligi har qanday tijorat bankining to'lovga qobiliyatligini va xatarlardan holiligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, tijorat banklarining etarli miqdorda bank kapitaliga ega bo'lishi, ularning likvidligini ta'minlash va faoliyati davomida duch keladigan xatarlardan zarar ko'rmaslik imkonini yaratadi.

⁶ ЎзР Президентининг 2007 йил 12 июлдаги ПҚ-670 сонли «Банкларнинг капиталлашувини янада ошириш ва иқтисодиётни модернизациялашдаги инвестиция жараёнларида уларнинг иштирокини фаоллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Қарори

Tijorat banklarining aktsiyadorlik kapitalida jismoniy shaxslar ulushining oshishiga hamda xususiy banklarning ko'payishini rag'batlantirish maqsadida ularning dividend tarzida oladigan daromadlari 2010 yilning 1 yanvariga qadar soliqqa tortishdan ozod qilindi.

Bunday imtiyozning joriy etilishi, birinchi navbatda aholining qo'lida turgan bo'sh pul mablag'larini bank kapitaliga jalb qilish orqali, ularning dividend tarzida oladigan daromadlarini oshiradi hamda ularning turmush darajasining yuksalishiga va boyishlariga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan esa, banklarda korporativ boshqaruv tizimini yanada sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Prezident qarori asosida tijorat banklariga 2011 yilgacha:

- banklarning respublikamiz korxonalariga uch yildan ortiq muddatga investitsiya kreditlari berishdan olgan va o'z kapitalini ko'paytirishga yo'naltirilgan foydalarini foyda (daromad) solig'idan ozod qilish;

- bankrotlik to'g'risida bank tomonidan qo'zg'atilgan da'vo munosabati bilan tugatish jarayonida bo'lgan korxonaning bank mulkiga o'tkazilishi natijasida qo'lga kiritilgan mol-mulki yangi mulkdorlarga sotilmaguncha mulk va yer solig'idan ozod qilish;


- tijorat banklarining tasdiqlagan davlat dasturlariga muvofiq tashkil etilgan mini-banklarni ochish bo'yicha sarf-harajatlarini soliqqa tortiladigan bazadan chiqarish kabi soliq imtiyozlari berildi.

Respublika hukumati tomonidan tijorat banklariga berilgan bunday imtiyozlar, ularning barqarorligini mustahkamlaydi va to'lov qobiliyatini oshiradi, shuningdek banklarning kapitallashuv darajasini jadallashtirib, ularning ustav jamg'armalari hamda aylanma mablag'larining ko'payishiga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining xususiylashtirish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish uchun tijorat banklariga qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorida qatnashishlariga hamda xususiylashtiriladigan korxonalar aktsiyalarining 50 foizigacha miqdorini belgilangan tartibda sotib olishlariga imkon yaratildi. Bu tadbir ishlab chiqish va moliya kapitalining qo'shilishi jarayonini aks ettirgan

holda xususiylashtirilayotgan korxonalarda mablag'lar taqchilligiga barham beradi, ya'ni ushbu korxonalarning xususiylashtirilishini tezlashtiradi, ushningdek, ularda korporativ boqaruv tizimini mustahkamlaydi va natijada korxonalarda ishlab chiqarish hajmining o'sishini va eksportga yo'naltirilayotgan mahsulotlarning ortishini ta'minlaydi.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining qonuniy va uslubiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, «Banklar va banklar faoliyati to'g'risida»gi, «Markaziy bank to'g'risida»gi, «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari» hamda O'zbekiston Respublikasi markaziy banki tomonidan ishlab chiqarilgan me'yoriy hujjatlari hisoblanadi.



1-chizma. Tijorat banklarida operatsiyalarning turkumlanishi

Banklarning o'ziga xos xususiyatlari ularning faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Ushbu faoliyatning natijasi esa bank xizmatining yaratilishi hisoblanadi va uni quyidagilarga: to'lov vositasini amalga oshirish hamda xizmatlar ko'rsatishga ajratish mumkin. Shu boisdan, tijorat banklarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarni alohida xususiyatlariga ko'ra turkumlash mumkin (1-chizmaga qarang).

Shunday qilib, bank operatsiyalari alohida belgilariga qarab turkumlash mijozlarga ko'rsatiladigan bank xizmatlarining sifatini va ularning samaradorligi oshirish natijasida olinadigan daromadni maksimallashtirishdir.

1.2.Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi yuritilishini to'g'ri tashkil etish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1438 sonli qarori chiqqanidan so'ng yanada dolzarb bo'lib qoldi⁷. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning samarali tizimi bankning yakuniy faoliyat natijasini to'g'ri o'rganishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu esa olingan natijalarning ichki va tashqi nazorati uchun juda muhim. Mazkur tizim tijorat banklarida buxgalteriya hisobining ikki ko'rinishidan, ya'ni boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobdan iborat. Ma'lumki, moliyaviy hisob tijorat bankining davlat tashkilotlari, boshqa banklar, aktsiyadorlar va shu kabilar bilan o'zaro munosabatlarini ifodalasa, boshqaruv hisobi bankning ichki boshqaruvi hamda nazoratining maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Moliyaviy hisobni tashkil etishda buxgalteriya hisobining umumiy qabul qilingan tushuncha va tamoyillari mujassamlashgan bo'ladi. Mazkur hisob yuritish hisob ob'ektlari va moliyaviy hisobotning holati hamda undagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni shakllantirishga xizmat qiladi.

⁷ ЎзР Президентининг 2010 йил 26 ноябрда қабул қилинган “2011-2015 йилларда республика молия-банк тизимини янада ислоҳ қилиш ва барқарорлигини ошириш ҳамда юқори халқаро рейтинг кўрсаткичларига эришишнинг устувор йўналишлари тўғрисида”ги ПҚ-1438 сонли Қарори

Tijorat banklarida moliyaviy hisob tizimini ishlab chiqish va qo'llash jarayoni ma'lum bir yo'nalishga asoslangan bo'lishi kerak. Moliyaviy hisob va hisobotning o'zaro bog'liq tizimini yaratish uchun buxgalteriya hisobining respublikada qabul qilingan milliy hamda xalqaro andozalari qo'llaniladi. Bu esa moliyaviy hisob kontseptsiyasi ishlab chiqilishining asosidir.

Bunday kontseptsiyani yaratish va uni bank amaliyotiga tatbiq etish uchun hisob yuritish ma'lumotlarini shakllantirish hamda ularni qayta ishlashning ierarxik tamoyili asosiga qurilgan modelni yaratish talab etiladi.

Shu bilan birga ma'lumotlarni buxgalteriya hisobvaraqlarida umumlashtirish va tasniflashning faqatgina odtsiy usullaridan foydalanish moliyaviy hisobda etarli emasligini ta'kidlash lozim. Moliyaviy hisobning umumlashtirilgan modeli o'zida moliyaviy hisob masalalari va hisob ob'ektlarini baholash, moliyaviy hisobot hamda uni talqin qilishning boshlang'ich, umumlashtiruvchi va tahliliy ma'lumotlarini mujassamlashtiradi.

Moliyaviy hisob yuritish tizimining samaradorligi uning tashkil etilishiga bog'liq. Shu sababli ham hisob yuritish ishlarining har bir bosqichi yakunlanganidan so'ng olinadigan ma'lumotlar buxgalteriya tomonidan ushbu tuzilmaga yuklatilgan funktsional majburiyatlarga muvofiq ravishda qayta ishlanishi kerak. Bunday majburiyatlarning eng asosiylaridan biri moliyaviy natijani to'g'ri aniqlashdir.

Moliyaviy hisobni tashkil etish tizimi turli hisob yuritish ob'ektlari, boshqarish uchun ma'lumot olishning maqsadlari va vazifalariga xizmat qiladigan barcha hisobvaraqlardan (tahliliy, sintetik va qo'shimcha hisobvaraqlar) foydalangan holda ma'lumotlar umumlashtirilishini nazarda tutadi.

Tijorat banki faoliyatining moliyaviy natijalari to'g'risida to'la va haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lishni ta'minlash maqsadida moliyaviy hisobni takomillashtirish talab etiladi. O'z navbatida moliyaviy hisobni tashkil etish quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

— hisob yuritishning ishchi modelini hisob yuritishning amaldagi

hisobvaraqlar rejasi asosida tashkil etish;

— moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini aks ettirish uchun hisobvaraqlarni tanlab olish;

— moliyaviy hisob ob'ektlarini baholash usullarini belgilab olish.

Demak, moliyaviy hisob yuritishning asosiy maqsadi tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlarni to'g'ri va aniq qilib tayyorlashdan iborat. Boshqaruv hisobi esa bankning moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalangan holda rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimini tashkil etishdan iboratdir.

Ma'lumki, moliyaviy hisobot haqqoniylik ta'minlanishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. U asosan hisobot davri tugagach, belgilangan tartibda audit tekshiruvdan o'tganidan keyin foydalanuvchilar e'tiboriga havola qilinadi. Hisobot ma'lumotlaridan bank faoliyati umumiy tahlil qilinayotgan paytda foydalanilish mumkin. Mazkur tahlil bank iqtisodiy faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Amalga oshiriladigan bunday tahlillar natijalari bank xizmatidan foydalanuvchilarni undagi muammolar haqida ogohlantirish imkonini beradi. O'z navbatida tijorat banklari ham o'zining joriy va kelgusidagi moliyaviy holatini ob'ektiv hamda ishonchli baholash tizimiga va samarali boshqaruvga muhtojlik sezadi. Tahlil ma'lumotlari tijorat banklariga belgilangan manfaatlar va maqsadlarga muvofiq ravishda faoliyat ko'rsatish imkonini beradi.

Demak, tijorat bankining moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holatini tahlil qilish uchun asosiy manba vazifasini o'taydi. Bankning real moliyaviy holatini baholash mamlakat pul-kredit tizimi barqarorligi uchun, banklarga joylashtirilayotgan pul mablag'lari saqlanishini, bankning moliyaviy baquvvatligi va faoliyatining barqarorligini ta'minlash uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy baquvvatlikni ta'minlashga erishish uchun bankning faoliyati umumiy tahlil qilinadi. Buning uchun bankning moliyaviy holatini hamda faoliyatining natijalarini aks ettiruvchi hisob ma'lumotlaridan foydalanish lozim bo'ladi.

1.3.Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklarida buxgalteriya xisobini tashkil etishda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar

70-yillarning boshlarida jahon miqyosida buxgalteriya hisobi qoidalarini umumlashtirish zarurati tug'ildi. Uzoq davom etgan jarayon natijasida xalqaro standartlar tasdiqlandi. Bu standartlar buxgalteriya hisobining Amerikada umumiy qabul qilingan tamoyillari (GAAR), shuningdek Evropadagi tamoyillarga ko'p jihatdan o'xshashdir. Xalqaro standartlar buxgalteriya hisobi milliy standartlarini shakllantirish uchun tavsiya xarakteriga ega bo'lishiga e'tibor qilingan, bu bilan milliy standartlarni bir —biri bilan solishtirish imkoni bo'ladi⁸.

Jahonda buxgalteriya hisobi biznes tili sifatida tushuniladi va xalqaro standartlarning asosiy maqsadi bo'lib buxgalteriya hisobi tushunchasi hamda asosiy tamoyillari birligini ta'minlash, mavjud terminologiya umumiyligi, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini ta'riflash va shakllarini tuzishda bir xil yondoshishga erishish hisoblanadi. Bunda tushunchalar, tamoyillar, terminlar va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari milliy tizimlari o'z xususiyatlariga va turli nomlarga ega bo'lishi mumkin (2-chizmaga qarang).


Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini guruhlariga ajratish va xo'jalik faoliyati faktlariga baho berish, aktivlar qiymatini to'lash, hujjatlar aylanmasini, mol-mulkni ro'yxatga olishni tashkil etish usullari, buxgalteriya hisobida hisobotlarni qo'llanish usullari, hisob registrlari tizimi, axborotlarni ishlab chiqish va o'ziga tegishli usullar, uslubiyatlar buxgalteriya hisobi va hisoboti usullariga kiradi. Pul oqimi to'g'risidagi hisobotdan tashqari moliyaviy hisobotlar hisoblab yozish tamoyili asosida tuziladi⁹.

Hisoblab yozish tamoyiliga muvofiq aktivlar, passivlar, o'z sarmoyasi, daromadlar, xarajatlar, xo'jalik operatsiyalari va voqealar buxgalteriya hisobida bu harakatlar yuzasidan pul mablaglari yoki ekvivalentlari olingan yoxud to'langan paytda emas, balki shu harakatlar sodir etilgan (yoki haqiqatda olingan) paytda aks

⁸ Белоцерковский В.И., Федорова Е.А. Бухгалтерский учет и аудит в коммерческом банке. Учебник. —М.: Издательство: экономика. 2009. -185с

⁹ Шпаков Л. В., Барулина Е. В. Бухгалтерский учет как пользоваться МФСО. «Альфа-Пресс». —М.: 2009. -37 с

ettiriladi.



2-chizma. Hisobni yuritish va hisobotni tuzishda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar

Hisoblab yozish tamoyili asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar undan foydalanuvchilarga o'tmishda pul to'lab yoki pul mablaglarini olib amalga oshirilgan operatsiyalar to'grisidagina emas, shuningdek kelgusida pul to'lanadigan majburiyatlar to'grisida ham axborot beradi, bu esa tegishli iqtisodiy qarorlarni qabul qilish chogida juda zarur hisoblanadi.

Ikkiyoqlama yozuv usuli bilan hisob yuritish qoidasi tijorat banklarida buxgalteriya operatsiyalarini ikkiyoqlama yozuv tizimi asosida ro'yxatga olishi lozimligini bildiradi. Ikkiyoqlama yozuv tizimi shundan iboratki, bir operatsiya bo'yicha bir miqdor buxgalteriya hisobining ikki hisobvarag'ida - birining debetida va ikkinchisining kreditida aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobotni davomiylik tamoyili asosida tayyorlash tijorat banklarida doimiy harakat qilishini va uzoq muddat davomida o'z faoliyatini davom ettirishini, ya'ni bankning o'zini tugatishiga yoki o'z faoliyati sohasini

qisqartirishga ehtiyoji yo'qligini bildiradi. Agar rahbar bankni tugatish yoki uning faoliyati ko'lamlarini qisqartirish zarur deb hisoblasa yoxud shunday vaziyatga olib keladigan sharoit mavjud deb o'ylasa, moliyaviy hisobga tushuntirishlarda bunday faktning mazmunini ochib berishi va moliyaviy hisobotni tuzishga asos bo'lgan jihatlarni, davomiylik tamoyilidan chekinish sabablarini ko'rsatishi zarur. Davomiylik tamoyili yana shuni bildiradiki, buxgalteriya hisobini yuritish muddati bank faoliyat ko'rsatgan muddatga mos bo'lishi lozim, ya'ni bankning buxgalteriya hisobi bank tugatilgan yoki u bankrot deb e'lon qilingan paytgacha yuritilishi lozim. Bank o'z faoliyatini to'xtatgan kundan boshlab, buxgalteriya hisobini yuritish ham to'xtatiladi.

Barcha xo'jalik operatsiyalari, voqealar, aktivlar va passivlar bir xil birlikda o'lchanishi - pul bilan baholanishi lozim. O'zbekiston Respublikasida pul birligi - so'm, uning bo'laklari - tiyinlardir.

Axborotda muhim xato yoki garazlilik bo'lmasa va foydalanuvchilar unga tayanishlari mumkin bo'lsa, ishonchli hisoblanadi. Operatsiyalar yoki voqealarning ishonchliligi odatda dastlabki hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi lozim.

Ehtiyotkorlik tamoyili moliyaviy hisobotda aktivlar va daromadlar narxining oshirilib yuborilishiga va majburiyatlar yoki xarajatlar bahosi kamaytirilishiga yo'l qo'yilmasligi lozimligini bildiradi. Bu tamoyilning qo'llanishi yashirin zahiralarni barpo etishga yoki ta'minotni oshirib ko'rsatishga, aktivlar yoki foydani, majburiyatlar va xarajatlarni ataylab kamaytirishga va oshirib ko'rsatishga huquq bermaydi.

Mazmunning shakldan ustunligi - bu tamoyilning mazmuni shuni bildiradiki, agar hisobga olish hujjatlarida va moliyaviy hisobotda axborot operatsiyalar va voqealarning mazmunini to'g'ri aks ettirsa, bu axborot moliyaviy hisobotda hisobga olinishi va ko'rsatilishi lozim.

Ko'rsatkichlarning qiyosiyliigi – bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo'lishi uchun u turli hisobot davrlaridagi axborotlarga qiyoslanadigan bo'lishi kerak. Hisobotdan foydalanuvchilar xo'jalik

yurituvchi bank moliyaviy hisobotni tayyorlash chogida foydalangan hisob siyosatidan, bu siyosatdagi barcha o'zgarishlardan va bunday o'zgarishlarning natijalaridan xabardor bo'lishi kerak. Moliyaviy hisobotda undan oldingi davrga nisbatan butun qiyosiy axborotni ochib berish zarur. Oldingi davrdagi moliyaviy hisobotlarning sharhlari va bayon qiluvchi axborotlari joriy hisobot davri uchun ham taqdim etilishi va joriy hisobot davri moliyaviy hisobotlarini xolisona taqdim etish uchun zarur bo'lsa, yangilanishi kerak. Moliyaviy hisobotning ko'rsatkichlarini tuzatish yoki uning moddalarini tasnif etish chogida joriy hisobot bilan qiyosiylikni ta'minlash uchun qiyoslama miqdorlar qaytadan tasnif etilishi va ayni paytda bunday tasnifning xarakteri, miqdori, sababi ochib berilishi lozim. Buning imkoniyati bo'lmasa, xo'jalik yurituvchi bank qayta tasnif etish sababini va agar miqdorlar qaytadan tasnif etilgan bo'lsa kiritilgan o'zgartishlarning xarakterini ochib berishi lozim. Agar axborot faqat taqdim etish uchun, masalan ma'lum bir davr boshidagi va oxiridagi nomoddiy va moddiy aktivlarning saldosini tekshirish uchun xizmat qilsa, bunday hollarda qiyoslanadigan axborot talab qilinmaydi.

Yangi standartlarni ishlab chiqish va mavjud standartlarni o'zgartirish bobida qiyoslanadigan axborot taqdim etishga talablar doirasi kamaytirilishi mumkin¹⁰. Yangi va qayta ko'rib chiqilgan standartlardagi o'tish qoidalari standartdan birinchi marta foydalanilayotganda qiyoslanadigan axborot taqdim etishni talab qilmasligi ham mumkin. Shunday vaziyatlar ham borki, joriy davr bilan qiyoslash maqsadida qiyoslanadigan axborotni qayta tasnif etish mumkin bo'lmaydi.

Masalan, bundan oldingi davrdagi axborot qayta tasnif etish mumkin bo'lmaydigan tarzda to'plangan bo'lishi mumkin, bu esa axborotni o'zgartirishga amalda imkon bermaydi. Bunday vaziyatda qiyoslanadigan miqdorlarga kiritilishi mumkin bo'lgan tuzatishlarning xarakteri ochib berilishi lozim. Qiyosiylik tamoyiliga rioya qilish uchun quyidagi shartlarni bajarish kerak: butun axborot

¹⁰ Камышанов П.И., Камышанов А.П. Бухгалтерская финансовая отчётность: составление и анализ. – 5-е издание. – М.: Омега-Л, 2009. – 167 с.

miqdoriga nisbatan talablar; hisobot yilida hisobotni taqdim etishga yondashuv o'zgargan taqdirda undan oldingi davr axboroti qiyoslash maqsadlari uchun qaytadan tasnif etilishi lozim. Agar amaliy mulohazalar bilan qayta tasnif etish mumkin bo'lmasa, basharti qayta tasnif amalga oshirilganda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning sabablari va xarakteri ochib berilishi lozim. Moliyaviy hisobotning holisligi – bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash uchun unda keltiriladigan axborot yangilishlardan xoli bo'lishi kerak.

Aktivlar va majburiyatlarni haqiqiy baholash tamoyili ularning tannarxi yoki sotib olingan narxi baholashga asos bo'lishini nazarda tutadi. Standartlarda ko'zda tutilgan ayrim hollarda haqiqiy baholash sotib olish qiymatidan farq qilishi mumkin.

Hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi ushbu davrda mazkur hisobot davrida olingan daromadlarga asos bo'lgan xarajatlarni aks ettirishini bildiradi. Agar xarajatlari va daromadlarning ayrim turlari o'rtasidagi bevosita bogliqlikni aniqlash qiyin bo'lsa, xarajatlari taqsimlashning biror-bir tizimiga muvofiq tarzda bir necha hisobot davriga taqsimlab chiqiladi. Bu bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlari ham taalluqlidir.

Tushunarlik tamoyilida moliyaviy hisobotda keltiriladigan axborot foydalanuvchilar uchun tushunarli va sodda bo'lishi lozim.

Moliyaviy axborotning ahamiyatliligi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ehtiyojini qoldirishi va operatsion, moliyaviy hamda xo'jalik faoliyatiga doir voqealarga baho berishda ularga yordam berishi lozimligini bildiradi. Axborotning mohiyati va qiymati (muhimligi) uning ahamiyatliligiga ta'sir qilishi mumkin.

Muhimlik - bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, agar axborotning tushirib qoldirilishi yoki noto'g'ri ko'rsatilishi axborotdan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta'sir qilsa, bundan axborot muhim hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarda xarakteri va vazifalari

jiyatidan o'xshash bo'lgan va alohida ko'rsatilishi mumkin bo'lmagan miqdorlar bilan umumlashtirilishi lozim bo'lgan miqdorlar bir moddada aks ettiriladi. Biroq, alohida o'zini olganda ham, boshqalarga ko'shganda ham muhim hisoblangan axborot o'zga axborot bilan to'la umumlashtirilmasligi lozim. Shu munosabat bilan, agar axborotning ochib berilmasligi hisobotdan foydalanuvchilar moliyaviy hisobot asosida qabul qiladigan iqtisodiy qarorlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, bunday axborot muhim hisoblanadi. Muhimlik uni tushirib qoldirishning alohida aniq sharhlarida ko'rib chiqiladigan moddaning hajmiga bogliq bo'ladi. Moliyaviy hisobot xarakteri va vazifalari jihatidan guruhlariga birlashtirilgan xo'jalik operatsiyalarini ishlab chiqish natijasidir. Moliyaviy hisobotlarda yoki modda tarzida tushuntirishlarda aks ettiriladigan, tasnif etilgan qisqa ko'rinishdagi axborot mazkur jarayonning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Moliyaviy hisobotda ayrim ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish yoki ularni boshqa ko'rsatkichlar bilan bir moddaga birlashtirish ham muhimdir. Shu sababli agar aktivlar yoki passivlarning, daromadlar yoki xarajatlarning ayrim moddalari muhim bo'lmasa, bunday hollarda modda yoki moddalar jamiining xarakteri va hajmi bir vaqtning o'zida baholanadi. Vaziyatga qarab moddaning xarakteri yoki hajmi belgilovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Agar dastlabki axborot muhim bo'lmasa, BHXSDa keltirilgan bunday axborotlarni ochib ko'rsatish talablarini bajarishga hojat bo'lmaydi. Biroq umumiy foydalanishga mo'ljallangan moliyaviy hisobotlarda muhim axborot boshqa muhim axborot bilan bir moddada birlashtirilgan bo'lsa, moliyaviy hisobotga tushuntirishlarda bu axborotni ochib ko'rsatish zarur. Muhimlik moliyaviy hisobotda keltirilgan tushunarliklik va aniqlik darajasi bilan bogliq. Axborotni ming yoki milliongacha yaxlitlashtirish chog'ida muhimlik tamoyili buzilmagan paytgacha aniqlik darajasidan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

To'g'ri va beg'araz tasavvur - bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy hisobotlar ulardan foydalanuvchilarda bankning moliyaviy ahvoli, operatsiyalarning natijalari va pul mablag'larining harakati to'grisida haqqoniy va begaraz tasavvur hosil qilishi kerak.

Tugallik - bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, ishonchlilikni ta'minlash uchun moliyaviy hisobotlardagi axborot to'la bo'lishi kerak.

Izchillik - bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar bankning turli hisobot davrlaridagi moliyaviy hisobotlarini uning moliyaviy ahvalidagi o'zgarishlar tamoyillarini aniqlash uchun qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bank operatsiyalari xarakteridagi muhim o'zgarishlar yoki hisobotni taqdim etish shaklini tahlil qilish hisobotni taqdim etish shaklini o'zgartirish maqsadga muvofiqligidan dalolat bermasa, moliyaviy hisobot moddalarini taqdim qilish va tasnif etish saqlanib qolishi kerak. Bank operatsiya o'tkazish faoliyatining xarakteridagi ayrim muhim o'zgarishlar yoki vaqti-vaqti bilan katta miqdordagi xarid qilish yoxud ko'p miqdordagi mulkning chiqib ketishi yoki moliyaviy hisobotning sharhi moliyaviy hisobotlarni o'zgacha tasavvur etish maqsadga muvofiqligiga olib keladi.

Offsetting (moddalarning o'zaro hisobga olinishi) - bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, aktivlar va passivlar o'rtasida o'zaro hisobga olinishi bo'lmasligi kerak. Daromadlar va xarajatlar moddalari o'zaro hisobga olinishi mumkin emas, faqat quyidagi hollar bundan mustasno: BHXS buni talab qiladi yoki ruxsat etadi; foyda, zararlar, shuningdek bunday operatsiyalar bilan bogliq xarajatlar va voqealar yakka holda ham, jamlangan holda ham muhim emas. Ularning taqdim etilishi operatsiyaning yoki bir xildagi bitimlar guruhining mohiyatini eng yaxshi tarzda aks ettirsa, bunday miqdorlar umumlashtirilishi va netto - asosda taqdim etilishi kerak.

Agar daromadlar va xarajatlar o'zaro hisobga olingan bo'lsa, shunga qaramay bank muhimlik tamoyiliga asoslanib, moliyaviy hisobotlarga izohlarda bu miqdorlarni ochib ko'rsatish ehtiyojini qarab chiqishi kerak.

Xolislik - bu tamoyilning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy hisobot bankning moliyaviy ahvolini, uning faoliyati moliyaviy natijalarini va pul mablaglarining harakatini xolisona ko'rsatishi lozim. Xolislik tamoyiliga erishish uchun har bir bank buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzish

chog'ida BHXS va buxgalteriya hisobi asosiy tamoyillarini qo'llanishga majburdir. Faoliyatning xilma-xil turlari bo'yicha yangiliklarni joriy etishning tezligi shunday operatsiyalar va vaziyatlarga olib kelishi mumkinki, bunday operatsiyalar va vaziyatlar bo'yicha BHMS hali ishlab chiqilmagan. Bunday holatlarda moliyaviy hisobotning xolisligiga hisob siyosatini tanlash va qo'llanish yo'li bilan erishiladi. Bunday siyosat xo'jalik yurituvchi bank tomonidan ushbu standartga muvofiq ravishda mustaqil ishlab chiqilishi lozim.

Bizning mamlakatimizda buxgalteriya hisobi va hisoboti standartlarini ishlab chiqish bilan auditorlik standartlarini tayyorlash va aktuallashtirish masalalari dolzarb xarakterga ega. Auditning aniqlangan va taqqoslovchi darajalarini ta'minlanishi bilan yillik hisobotini buxgalteriya hisobi va hisoboti xalqaro standartlariga mos keluvchi sifati va oydinlashuvini ta'minlash mumkin.

Haqiqiy qiymat - bu baholosh tamoyili bo'lib, moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonida tijorat banklari tomonidan ko'p qo'llaniladi. U odatda baholashning boshqa tamoyillari bilan birgalikda qo'llaniladi. BHXS talablariga ko'ra tovar-material qiymatlaklar tannarxi va sotishning mumkin bo'lgan sof baholardan eng kichigi miqdorida baholanadi. Likvidli qimmatbaho qog'ozlar bozor kursi bo'yicha baholanadi, moddiy aktivlar joriy bozor qiymatida muntazam qayta baholanib boradi. 36-sonli «Aktivlar qiymatining arzonlashuvi» BHXSga asosan aktivlar ularni qoplash summalaridan ortiq bo'lmagan qiymatda baholanishi talab qilinadi. Bunda vujudga keladigan farq hisobot davri zarari sifatida ko'rsatiladi¹¹.

Tiklash qiymati mazkur ob'ektni almashtirish zarurati bo'lganda to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti summasiga tengdir. Majburiyatlar joriy qiymatda baholanadi, bunda ularni shu vaqtda so'ndirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari yoki ular ekvivalentlarining diskontlanmagan summalarini anglatadi. Bozor qiymati -aktiv faoliyat ko'rsatayotgan bozorda moliyaviy instrument yoki boshqa aktivlarni sotilishida olinadigan yoki sotib olinishida to'landigan pul mablag'lari summasidir.

¹¹ Шпаков Л. В., Барулина Е. В. Бухгалтерский учет как пользоваться МФСО. «Альфа-Пресс». –М.: 2006. -107 с

Haqqoniy qiymat bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan tomonlar o'rtasida bitimlarni amalga oshirishda majburiyatlarni bajarilishi yoki aktivni sotib olish uchun etarli bo'lgan pul mablag'i sifatida aniqlanadi.

Joriy diskontlangan qiymat odatdagi tijorat operatsiyasi vaqtida aktivni realizatsiya qilishga olib keladigan kelgusidagi pul tushumlarining diskontlangan hajmi sifatida aniqlanadi. Majburiyatlar normal xo'jalik vaziyatida majburiyatlarni so'ndirish uchun talab qilinadigan kelajakdagi pul oqimlarining diskontlangan qiymati bo'yicha baholanadi.


Qiymatni diskontlanishi haqiqatda mavjud qoidaga asoslanadi: pul summasining bir qismi bugun kelgusiga nisbatan qimmat turadi, chunki u foiz ko'rinishida daromad olinishi uchun ishlatilishi mumkin. Sof pul moddalari bo'yicha foyda va zararlar sof foyda tarkibiga qo'shiladi va alohida ko'rsatiladi. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari buxgalteriya hisoboti ma'lumotlarini inflyatsiya darajasiga korektirovka qilishni ko'zda tutmaydi, bu esa uning BHXS bilan solishtirib bo'lmaslikning sabablaridan biridir.

Mamlakatimiz banklari faoliyati natijalarini chet el banklariniki bilan solishtirishlarni ta'minlash uchun tijorat banklari hisobotlari xalqaro amaliyotda qabul qilingan norma va standartlariga mos kelishlari kerak¹².

Mazkur standartda banklar xukumatlar va tartibga soluvchi organlar bilan yaqin o'zaro munosabatlari orqali pul tizimiga ishonchni ta'minlashda asosiy rolni o'ynashi ko'rsatib o'tiladi.

Shuning uchun banklarning holati haqidagi ma'lumotga, xususan ularning to'lovga qobiliyatligiga, likvidligiga va ularning turli faoliyatlari bilan bog'liq tavakkalchilikning nisbiy darajasiga, keng qiziquvchanlik mavjud. Banklarning buxgalteriya hisobi va hisoboti va unga qo'yilgan talablar boshqa tijorat kompaniyalariga qo'yilgan talablardan farq qiladi. Banklar o'zlarining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni baholash va tan olishlari uchun turlicha usullarni qo'llaydilar (3-chizmaga qarang).

¹² Рожнова О.В. Международные стандарты бухгалтерского учета и финансовой отчетности: Учеб. пос. -М.: ЭКЗАМЕН, 2003. - 127 с.



3-chizma. Moliyaviy hisobot elementlarini baholash


Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga mos kelish va qo'llanilgan usulning foydalanuvchilarga tushunarli bo'tishini ta'minlash uchun quyidagilarga nisbatan hisob siyosatini yoritish kerak bo'ladi: daromadning asosiy turlarini tan olish; investitsion va tijoriy qimmatbaho qog'ozlarni baholash; kreditlar va avanslar bo'yicha zararlarni aniqlash va ularni hisobdan chiqarish usuli; bank umumiy tavakkalchiliklariga hisoblangan foizlarni aniqlash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish usuli.

Shunday qilib, banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni daromadlar va xarajatlarning xarakteriga qarab guruhlashtiradigan hamda ularni asosiy turlari bo'yicha yoritadigan darajada taqdim qilish talab etiladi. Shuningdek, aktiv va passivlarni ularning xarakteri bo'yicha nisbatan likvidligini aks ettiruvchi tartibda guruhlashtiruvchi balans taqdim qilishi maqsadga muvofiqdir.

2-Bob.AT «Savdogarbanki» amaliyot boshqarmasida bank xizmatlari bo'yicha xarajatlar hisobining hozirgi holati

2.1. AT «Savdogarbank»ning amaliyot boshqarmasida xarajatlarning dastlabki hisobi

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsion xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit xatari bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar. Tijorat banki xarajatlarini tarkibiy qismlarga ajratish mumkin (4-chizmaga qarang).



4-chizma. Bankning amaliyot boshqarmasida xarajatlarning tasniflanishi

Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.

Xarajatlarga likvidlilik singari har qanday ustama foiz o'zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta'sir qiladi. O'z navbatida bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Xarajatlarni to'g'ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxlarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aktsiyadorlar uchun daromadlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak. Foizli xarajatlar -majburiyatlar bo'yicha to'plangan foiz summasi demakdir¹³.

¹³ Козлова Е.П., Николаевна Е.Н. Бухгалтерский учет в коммерческих банках. –М.: Финансы и статистика. 2009 г .98 стр

Bizga ma'lumki, tijorat banklari kredit resurslari tashkil etishda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hamda muddatli depozitlar qabul qiladi. Ushbu depozitlarga banklar ma'lum belgilangan foizlarda pul to'laydilar. Tijorat banklari bank qarz majburiyatlari bo'yicha to'langan foizlar to'laydilar, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarining sotuv narxi bilan nominal qiymati orasidagi salbiy tafovut bo'lganida, ba'zibir keltirilgan, lekin to'lanmagan foizlarni to'lashda banklarda foizli xarajatlar yuzaga keladi.

Tijorat banklarida foizli xarajatlarning yana biri kredit va unga bog'liq operatsiyalardir. Banklar, eng avvalo, Markaziy bankdan, boshqa tijorat banklaridan, byudjetdan tashqari fondlardan, bank bo'lmagan moliyaviy muassasalardan kreditlar olishi mumkin. Olgan kreditlar uchun to'lanadigan qarz foizli xarajatlarga kiradi.

Bank avvalgi yillar (hisobot yiliga nisbatan) hisobiga to'lagan foizlar va vositachilik yig'implari hamda o'tgan yillarda bank mijozlardan ortiqcha undirgan foizlar, vositachilik yig'implarini qaytarishi bilan foizli xarajatlar qiladi.

Foizsiz xarajatlarga maoshlar va qo'shimcha to'lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish, shuningdeq boshqa operatsiya xarajatlari kiradi. Banklar O'zbekiston Respublikasi Pensiya fondiga, O'zbekiston Respublikasi Aholini ish bilan ta'minlash davlat fondiga, O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy sug'urta fondiga qonunlarga muvofiq o'tkaziladigan majburiy ajratmalar, jumladan bank xodimlariga mukofot hamda ko'p yil ishlaganlik uchun yoziladigan to'lovlarni amalga oshiradilar. Bank nodavlat pensiya fondlariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlari uchun o'tkazgan ajratmalari, qonunlarga muvofiq bank mulkini va bank xodimlarini davlat sug'urtasidan o'tkazish bo'yicha to'lovlar ham bankning foizsiz xarajatlariga kiradi.

Bank asosiy fondlarni, jumladan, ularning bank faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan alohida qismlarini, xususan, tushumni inkassatsiya qilish uchun avtomobil transportini ijaraga olish bo'yicha xarajatlar qiladi.

Bank xodimlari va bank xodimlari bo'lmagan, ya'ni bank shtatida bo'lmagan

xodimlarga, ular bilan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilgan ishlar uchun ish haqi to'lash xarajatlari, amaldagi qonunlarga muvofiq, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar pulini, shuningdek tibbiy ko'riklardan o'tish, davlat majburiyatlarini bajaripshar uchun sarflangan vaqt zvaziga haq to'lash kabi xarajatlar qiladi.

Bundan tashqari, banklarning foizga dahli yo'q xarajatlariga bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashda qiladigan xarajatlari kiradi. Tijorat banklari oliy o'quv yurtlari bilan kelishilgan shartnomadagi mablag'larni to'lab bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, bank xodimlari malakasini oshirish va kayta tayyorlash xizmatlari uchun haq to'laydi. Bunda banklar nomoddiy aktiv shakllantiradi va bu kelajakda o'z samarasini beradi.

Bankni boshqarish tizimida marketing va shunga o'xshash funktsional xizmatlar yoki shunday funktsional vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxslar bo'lmagan hollarda marketing hamda shunga o'xshash boshqa xizmatlar haqini to'laydilar.

Hozirgi zamonda axborotlar hayotimizda eng muhim o'rin egallaydi. Bu axborotlarning barchasi banklarga yaqin bo'lgan amaliyotdir. Bu xizmatlarni barchasini banklar katta xarajatlarga amalga oshiradilar. Kunlik operatsiyada banklar mijozlarga bir qancha hujjatlar taqdim etadilar, bu hujjatlar, kantselyariya qog'ozlariga ham foizsiz xarajatlar hisobidan amalga oshiriladi¹⁴.

Bundan tashqari, banklar maxsus adabiyotlar, me'yoriy va yo'riqnoma tusidagi hujjatlar sotib olish, shuningdek, ank faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'ladigan maxsus nashrlarga obuna bo'yicha qilinadigan -xarajatlari mavjud.

Tijorat banki noishlab chiqarish sohasi ob'ektlarini (uy-joy-kommunal xo'jaliklar, o'quv markazlari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, tibbiy, sog'lomlashtirish va boshqa muassasalar) saqlash, jumladan, shunday ob'ektlarni barcha turlarda ta'mirlashga qilinadigan, lekin ulardan foydalanish orqali olingan

¹⁴ Крис Дж. Барлтроп, Диана МакНотон. В 2-х томах. Организация работы в банках. –М.: “Финансы и статистика”. 2009 г 186 стр

daromadlar (kvartira haqi, ota-onalar o'z daromadlari bolalar barchasiga qatnashgani uchun to'lanadigan badallar, yo'llanmalar qiymati to'lovlari va boshqalar) bilan qoplaydigan xarajatlar, shuningdek, yuqorida aytilgan ob'ektlardan ijara shartlarida foydalaganlik hollarda shu ob'ektlar bo'yicha to'planadigan ijara haqi kabi xarajatlari mavjud.

Banklar o'z xodimlari sog'lig'ini saqlash va ular dam olishini tashkil etish tadbirlari (davolanish va dam olish uchun yo'llanmalar, ekskursiya va sayoxatlar yo'llanmalari, sport bilan shug'ullanish, madaniy va sport tomosha tadbirlariga borish uchun haq dam olish xonalarini tashkil etish va saqlash, gazlashtirilgan suv quyish uskunalari o'rnatish bilan bog'liq va shunga o'xshash boshqa xarajatlar) uchun xarajatlarni amalga oshiradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

2008-2010 yillarda bankning amaliyot boshqarmasida xarajatlarning taqsimlanishi
yoki xarajatlari tarkibi

mln. so'mda

Xarajat turlari	2008y.	2009y.	2010y.
I.Foizli xarajatlar jami	100	100	100
1. Depozitlar uchun foizlar	8,9	8,1	13,4
2. Banklararo kreditlar uchun foizlar	89,4	94,8	86,6
Z. Qimmatli qog'ozlarga to'langan foizlar	0	0	0
4. Boshqa foizli xarajatlar	1,7	0,1	0
II.Foizsiz xarajatlar	100	100	100
1. Komission xarajatlar	11,2	10,8	11,2
2. Xorijiy valyuta operatsiyalaridan ko'rilgan zapap	0	0	0
3. Qimmatli qog'ozlardan ko'rilgan zarar	0	0	0
4. Ish haqi xarajatlari	22,4	21,3	24,5
5. Amortizatsiya xarajatlari	6,5	6,5	7,6
6. Soliqlar va boshqa majburiy xarajatlar	21,1	19,2	19,9
7. Boshqa foizsiz xarajatlar	29,9	37,2	30,7

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bankning foizli xarajatlari ichida asosiy o'rinni banklararo kreditlar uchun foizlari egallaydi. Foizsiz xarajatlar ichida asosiy o'rinni ish haqi xarajatlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar egallaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank xarajatlarini yanada kengroq tasniflaydigan bo'lsak ularni quyidagi asosiy qismlarga bo'lish mumkin:

1. Foizli xarajatlar o'z navbatida quyidagi qismlarga bo'linadi: talab qilib olguncha depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; Markaziy Bank oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlar; boshqa banklar oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlar; bankning yopilmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlar; qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar; uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar; chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar; boshqa foizli xarajatlar;

2. Foizsiz xarajatlar esa o'z ichiga quyidagilarni oladi: barcha komission xarajatlar; chet el valyutasidagi zarar; tijorat operatsiyalari bo'yicha xarajatlar; investitsiyalar bo'yicha zararlar; boshqa foizsiz xarajatlar.

3. Ish haqi va xodimlarga boshqa to'lovlar deganda quyidagilar ko'zda tutiladi: ish haqi; xodimlar uchun imtiyozlar; meditsina bilan bog'liq xarajatlar; mjtimoiy-sug'urta jamg'armasiga to'lovlar; sotsial himoya xarajatlari; mehnat birjasi, ya'ni bandlilik fondi va boshqa fondlarga vzoslar; xodimlarga boshqa xarajatlar.

4. Ijra va xizmatlar uchun (xo'jalik) xarajatlariga quyidagilar kiradi: ijara to'lovi; suv uchun to'lov; elektro-energiya uchun to'lov; ta'mirlash; va xo'jalik xarajatlari; ko'riqlash bo'limiga to'lov.

5. Safarnoma va transport xarajatlariga quyidagilarni kiritish lozim: safar xarajatlari; uy-joy xarajatlari; yoqilg'i xarajatlari; transport uchun qilinadigan boshqa xarajatlar.

6. Ma'muriy xarajatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: reklamalar; kantselyariya va ofis uchun olinadigan buyumlarga xarajatlar; pochta, telefon, faks xarajatlari; tipografiya uchun, kitob va jurnallar, gazetalar sotib olish uchun qilinadigan xarajatlar.

7. Madaniy tadbirlar va xayriya xarajatlariga quyidagilar kiradi: madaniy tadbirlar uchun xarajatlar; a'zolik vzoslari; xayriya xarajatlari;

8. Amortizatsiya xarajatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: bank binosining

eskirishi; bank binosi narxining o'sishi; transport eskirishi; mebel va boshqa qo'llanmalarining eskirishi; nomoddiy aktivlarning eskirishi; ijaraga berilgan asosiy vositalarning eskirishi; ijaraga bo'lgan huquq va ijaraga olingan ob'ektni ta'mirlashning eskirishi.

9. Sug'urta, soliqlar va boshqa xarajatlarga quyidagi xarajatlarni kiritishimiz mumkin: yuridik va auditorlik xizmatlar uchun to'lovlar; konsalting xizmatlar uchun to'lovlar; sug'urta xarajatlari; soliqlar; jarima va ustamalar; boshqa operatsion xarajatlar; ko'zda tutilgan zararlar qiymati; daromad solig'i.

Tijorat banklarida foizsiz xarajatlarda komission xarajatlar quyidagilarga bo'linadi:

1. O'zRMB xizmatlari uchun komission xarajatlar; boshqa banklar xizmatlari uchun komission xarajatlar; qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi komission xarajatlari; qimmatbaho metallarni oldi-sotdi komission xarajatlari; veksellar sotib olishdagi xizmatlar uchun xarajatlar; investitsiyalarni joylashtirishdagi xizmatlar uchun xarajatlar; akkreditiv va aktseptlardagi xizmatlar uchun xarajatlar; overdraft bo'yicha xarajatlar; kreditlar bo'yicha komission xarajatlar; kredit majburiyatlari bo'yicha komission xarajatlar; menejment bo'yicha komission xarajatlar; mahalliy to'lovlar uchun komission xarajatlar; chet el to'lovlari bo'yicha komission xarajatlar; inkasso operatsiyalari o'tkazganlik uchun komission xarajatlar; garantlar va kafilliklar bo'yicha komission xarajatlar; boshqa xizmatlar uchun komission xarajatlar.

2. Chet el valyutasida zarar 2 ga bo'linadi: «spot» shartnomalari bo'yicha zarar va forward /option/ fbyuchers bo'yicha zarar;

3. Tijorat operatsiyalari bo'yicha zarar ikki xil bo'ladi: qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalardan zarar va qimmatbaho metallar bilan operatsiyalardan zarar. Bu xarajatlarning barchasi bank balansining 5-bo'limida, ya'ni «xarajatlar» bo'limida aks etadi.

Shunday qilib, tijorat banklarida bank xizmatlari bo'yicha xarajatlar tarkibini ob'ektlariga ko'ra to'g'ri aniqlash yakuniy natijalar bo'yicha ishonchli

ma'lumotlar olish imkonini beradi. Natijada, xizmatlar tannarxining to'g'ri shakllanishiga olib kelsa, daromaddan olinadigan soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha esa, xisob-kitoblarni hisobga olish ham shunchalik ob'ektiv bo'ladi.

2.2. Bankning amaliyot boshqarmasida xarajatlar hisobi va uning amaliyoti

Tijorat banklari korxona va tashkilotlarning hisob-kitob, kassa hamda kredit bo'yicha operatsiyalarni bajaradi. Shuningdek turli va boshqa pullik xizmatlarni ko'rsatadi. Banklar o'z faoliyati davomida operatsiyalarni bajarishda turli xil xarajatlar qiladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi nizomi¹⁵ga muvofiq bank xarajatlari balansning 50000- hisobvaraqlar bilan yuritiladi. Bank faoliyatiga oid xarajatlarga talab qilib olunguncha saqlanadigan depozitlar hamda muddatli depozitlar bo'yicha to'langan foizlar yozilgan, lekin to'lanmagan foizlar bank majburiyatlari bo'yicha to'langan foizlar banklararo kreditlar, bank olgan qayta moliyalashtirish kreditlari, muddati o'tgan banklararo kreditlar bo'yicha to'langan foizlar, vositachilik yig'implari, chet el valyutasini xarid qilish uchun to'langan vositachilik yig'implari va boshqalar kiradi.

Foizsiz xarajatlar turli-tuman bo'ladi. Bankning xarajatlari balansning qaysi hisobvaraqlari bo'yicha yuritilishini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish lozim. Bankning foizli xarajatlari ya'ni, talab qilib olguncha, jamg'arma va muddatli depozitlar bo'yicha xarajatlarning xarakteri bir-biriga o'xshash bo'lib, bu depozit majburiyatlar uchun hisoblangan va mijozga to'langan foizlardir. Auditor ularning balans hisobvaraqlari bo'yicha yoyilishini quyidagicha tekshiradi:

50101-davlat depozitlari, ya'ni talab qilib olguncha foizli xarajatlar; 50104-byudjet organlarining talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50106-jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50108-xususiy korxona va korporatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar;

¹⁵ «Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг даромадлари, харажатлари ҳисобини юритиш ва уларнинг даромад солиғини ҳисоблаш тўғрисида»ги Низоми. –Т.: 2003й.

50111-davlat korxonalarining talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50114-qo'shma korxonalarining talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50116-talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50118-individual tadbirkorlarning talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50121-bank bo'lmagan moliya muassasalarining talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50126-boshqa mijozlarning talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50601-davlat jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50604-byudjet organlarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50606-jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50608-xususiy korxona va korporatsiyalarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50611-davlat korxonalari jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari; 50614-qo'shma korxonalarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 50616-jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar. 50621-bank bo'lmagan moliya muassasalarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar; 51100-muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.

Ushbu foizli xarajatlar tasnifiy jihatdan o'xshashdir. Yuqoridagi xisobvaraqlar bo'yicha tuzilgan shartnomalar asosida foizlar hisoblanadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtirilishi aniqlaydi: D-t 50100 (50600, 51100), K-t-mijoz hisobvarag'i yoki bankning mijozi oldidagi majburiyatlari hisobvarag'i. Hisobot yili oxirida bu xarajatlar daromad hisobidan qoplanadi: D-t - 31206 (sof foyda) K-t - 50100 (50600, 51100).

Auditor Markaziy bankka to'lanadigan foizli xarajatlarning balans hisobvarag'idagi operatsiyalarining aniqligini tekshirib ko'radi: 51601-«Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i bo'yicha foizli xarajatlar –Vostro», 51606-«Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlar bo'yicha foizli xarajatlar–Nostro», overdraft. 51611-«Markaziy bank depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar» hisobvarag'i.

Bu hisobvaraqlardan Markaziy bank hisobvarag'i yoki depozitlari qoldiq

summalariga hisoblangan foizlar xarajat qilinganligini hisobvaraqlar bo'yicha to'g'ri o'tkazilganligi tekshiradilar: Dt 51600, Kt Vakillik hisobvarag'i yoki depozit hisobvarag'i. Bu xarajatlar yil xirida foyda hisobidan qoplanadi, buxgalteriya hisobida quyidagi ko'rinishda bo'ladi: Dt 31206, Kt 51600.

Boshqa banklarga to'lanadigan foizli xarajatlar ham 3 turga bo'linganligi va ularni balans hisobvaraqlarida yuritilishini tekshiradi: 52101—«Boshqa banklarni vakillik hisobvarag'i bo'yicha foizli»; 52106—«Boshqa banklardan vakillik hisobvarag'i bo'yicha foizli xarajatlar»; 52111—«Boshqa banklarning depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari» hisobvaraqlari. Bu hisobvaraqlardan boshqa banklar vakillik va depozit hisobvaraqlari qoldiqlariga hisoblangan foizlarning xarajat qilinganligi, yil oxirida bankning qaysi manbasidan qoplanganligini tekshiradi: Dt - 52100, Kt - depozit yoki vakillik hisobvarag'i.

Xarajatlarni yopish: Dt 31206, Kt 52100. YO'pilmagan aktseptlar bo'yicha foizli xarajatlar balansning 52606-hisobvarag'ida aks ettirilishi va qisqa muddatli kreditlar bo'yicha xarajatlar - 53100 hisobvaraqda, uzoq muddatli foizli xarajatlar - 54100 hisobvaraqda yuritilishini tahlil qiladi.

Kreditlar bo'yicha foizli xarajatlarning tasnifi o'xshash bo'lib, ular mijozlar yoki banklardan olingan olingan kreditlarga shartnoma asosida hisoblangan foizlarni to'lash uchun ishlatilishi va buxgalteriya hisobida qanday rasmiylashtirilganligi aniqlanadi: D-t 53100 (54100, 53600) K-t Mijozlarning hisobvarag'i. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar 54200 hisobvarag'i.

Boshqa foizli xarajatlar - 54902 balans hisobvarag'ida yuritilishi va bu hisobvaraqdan xarajat qilinishi, yil oxirida qaysi manba hisobidan yopilishi aniqlanadi va buxgalteriya hisobida rasmiylashtirilishi aniqlanadi: D-t 31206, K-t 54902.

Banklar faoliyatida foizli xarajatlar turli- tuman bo'lishida va balansda qaysi hisobvaraqlarda yuritilishini va ularni foyda hisobidan qoplashni buxgalteriya o'tkazmalarini nazariy jihatdan aks ettirilishi tekshiriladi. Bundan tashqari tijorat banklari marketing, funktsional xizmatlar haqini to'lash, qo'riqlash, yong'indan

saqlash va aloqa vositalarini o'rnatish bo'yicha qilinadigan barcha ishlar foizli xarajatlarni tashkil etish tartibi aniqlanadi (2-jadvalga qarang)

2-jadval.

2009-2010 yillarda bankning amaliyot boshqarmasida foizli xarajatlar tarkibi

(mln so'mda)

№	Ko'rsatkichlar nomi	2009	2010	O'zgarishi (+,-)
1	Depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	48951	10463	-38488
2	Kredit bo'yicha to'lanadigan foizli xarajatlar	159157	74785	-84372
3	CHiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar	51	0	-51
	Jami foizli xarajatlar	208159	85248	-122911

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning foizli xarajatlari 2009 y. holatida 208159 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich 85248 mln. so'mga teng bo'lgan. Ya'ni o'tgan yilga nisbatan bankning foizli xarajatlari 122911 mln. so'mga kamaygan. Bankning foizli xarajatlari asosiy qismi kredit bo'yicha to'lanadigan foizlar o'tgan yilga nisbatan 84372 mln. so'mga kamaygan. Shuningdek, bank bo'limida depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar ham o'tgan yilga nisbatan 38488 mln. so'mga kamaygan. Ushbu ma'lumotlarni chuqurroq tekshirib ko'ramiz (3-jadvalga qarang).

3-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, bankning hisobot davrida sarflagan jami xarajatlari 101433 mln. so'mga teng bo'lib, fondlarga o'tkazmalar va zahiralarining jami xarajatlarda tutgan ulushi eng yuqoridir. (20,96%), ya'ni 21263 mln. so'm. Bankning foizli xarajatlari buxgalteriya balansining 50100-hisobvarag'idan to 54902-hisobvaraqqacha bo'lgan moddalardan iborat. Bankning faoliyatida foizsiz xarajatlar ham mavjud. Foizsiz xarajatlar quyidagi hisobvaraqlarida aks ettiriladi: 55100 «Ko'rsatilgan xizmatlar uchun komission xarajatlar». Bu foizsiz xarajatlar 55102-hisobvarag'idan to 55195-hisobvaraqlariga tegishlidir.

Komission xarajatlar—bank operatsiyalar uchun ko'rsatilgan xizmati doirasida to'lanadigan foizsiz xarajatlardir. Bu to'lovlar hisobining to'g'ri

yuritilishi va ularning rasmiylashtirilishi hisobvaraqlar bo'yicha tekshirib ko'riladi:
D-t 55100, K-t «Xizmat ko'rsatgan xo'jalik yurituvchi sub'ektnin hisobvarag'i.

3-jadval

2010 yilda bankning amaliyot boshqarmasida xarajatlar tarkibi va ularning
o'zgarishi

Xarajatlar		So'mdagi xarajatlar		Jami, mln. so'm
		mln. so'm	ulushi%	
Jalb qilingan kreditlarga foizlar		8763	8,64	8763
1.	Olingan kreditlar (muddatli)ga to'lanadigan foizlar	8707	8,58	8707
2.	Muddati uzaytirilgan kreditlar bo'yicha to'langan foizlar	41	0,04	41
3.	To'langan muddati muzaytirilgan foizlar	15	0,02	15
Jalb qilingan mablag'lar bo'yicha yuridik shaxslarga to'langan foizlar		17016	16,78	17016
1.	Bank mijozlarining ochiq hisobvaraqlari bo'yicha to'langan foizlar	1657	1,63	1657
2.	Depozitlar bo'yicha to'langan foizlar	15236	15,03	15,03
3.	Boshqa jalb qilingan mablag'lar bo'yicha to'langan foizlar	123	0,12	123
Depozitlar bo'yicha jismoniy shaxslarga to'langan foizlar		17135	16,89	17135
Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha xarajatlar		16067	15,84	16067
1.	Qimmatli qog'ozlar chiqarish bo'yicha xarajatlar	4671	4,61	4671
2.	Kimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha boshqa xarajatlar	11396	11,23	11396
Xorijiy valyutalar va boshqa valyuta qimmatliklari bilan operatsiyalar bo'yicha xarajatlar		1853	1,83	1853
1.	Xorijiy valyutalar bilan operatsiyalar bo'yicha xarajatlar	1853	1,83	1853
2.	Xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarni qayta baholashdan ko'rilgan zapap	-	-	-
Boshqaruv apparatiga xarajatlar		6132	6,05	6132
1.	Boshqaruv apparatiga xarajatlar	6132	6,05	6132
2.	Ijtimoiy-maishiy xarajatlar	-	-	-
Bankning tashkiliy xarajatlari		-	-	-
To'langan jarima va penyalar		277	0,27	277
Boshqa xarajatlar		34190	33,70	34190
1.	Fondlarga o'tkazmalar va zahiralar	21263	20,96	21263
2.	To'langan komission to'lovlar	15	0,01	15
3.	Boshqa operatsion xarajatlar	7327	7,22	7327
4.	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	5585	5,51	5585
Jami xarajatlar		101433	100,00	101433

Yil oxirida bu foizsiz xarajatlar qaysi manba hisobidan to'langanligi va

buxgalteriya hisobida quyidagicha rasmiylashtirilishi aniqlanadi: Dt – 31206, Kt – 55100.

Chet el valyutasidagi zarar 2 ko'rinishda aks ettirilishi mumkin. 55302 - «Spot» shartnomasi bo'yicha zarar. va 55306 - «Forvard» /Option/ F'yuchers shartnomalari bo'yicha zarar. Bu hisobvaraqlar orqali spot, forvard, option, f'yuchers shartnomalaridan ko'rilgan zararlar hisobi yuritilishi aniqlanadi. Zararlar yil oxirida bankning foydasi hisobidan hisob-kitob qilinadi. 55600 «Qimmatli qog'ozlar va qimmatbaho metallar bilan operatsiyalardan zarar» va 55800 «Investitsiyalardan zarar» hisobvarag'i.

Boshqa foizsiz xarajatlar hisobvaraqlarda quyidagicha aks ettirilishi aniqlanadi: 55902 - «Bank mol-mulkini sotishdan zarar»; 55910 - «Bank aktivlarini sotishdan zarar»; 55995 - «Boshqa foizsiz xarajatlar» hisobvaraqlari. Bu zararlar ham yil oxirida qaysi manba hisobidan qoplanishi aniqlanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan foizsiz xarajatlarni quyidagi jadvalda tekshirib ko'ramiz (4-jadvalga qarang).

4-jadval.
2009-2010 yillarda bankning amaliyot boshqarmasida foizsiz xarajatlar tarkibi
(mln. so'mda)

№	Ko'rsatkichlar nomi	2009	2010	O'zgarishi (+,-)
1	Komission va xizmatlar uchun xarajatlar	15053	9478	-5575
2	CHet el valyutasidagi zararlar	322,6	36,8	-285,8
3	Boshqa foizsiz xarajatlar	21742	12544,5	-9197,5
	Jami foizsiz xarajatlar	37117,6	22059,3	15058,3

4-jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bankning foizsiz xarajatlari 2009 yilda 37117,6 mln. so'm bo'lgan bo'lsa, bu xarajatlar 2010 yilda 22059,3 mln.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 15058,3 mln. so'mga kamaygan. Komission va xizmatlar uchun xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 5575 mln. so'mga kamaygan.

SHuningdek, chet el valyutasidagi zarar va boshqa foizsiz xarajatlar 9483,3 mln. so'mga kamaygan. Demak, foizsiz xarajatlar bank faoliyatida o'tgan yilga nisbatan kamaygan bo'lib, moliyaviy natijalarni foyda bilan tugashiga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi.

2.3. Bankning amaliyot boshqarmasida ko'rsatilgan xizmatlardan ko'rilgan zararlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tijorat bankining hisobot davridagi moliyaviy faoliyatini ko'rsatadi va bu faoliyatning turli jihatlarini tushunishga imkon beradigan usuldan iborat bo'ladi.

Tijorat banklarining o'z faoliyatlarini olib borishdan asosiy maqsadi yuqori daromad olishga qaratilgan. Bu daromadlarni ko'paytirish yo'llarini tijorat banklari o'zlari mustaqil ravishda belgilaydilar¹⁶.

Xarajat – bu hisobot davrida pul mablag'larining yoki boshqa aktivlarning kamayishi sifatida, yoki kapital egalarining badallarini qaytarib to'lab berilishi bilan bog'liq bo'lmagan holda, kapitalning kamayishiga olib keladigan majburiyatlarning ko'payishi sifatida iqtisodiy nafning kamayishidir.

Bank xarajatlari shartli ravishda: foizli xarajatlar, foizsiz xarajalar va operatsion xarajatlar quyidagicha tasniflanadi¹⁷.

1. Foizli xarajatlar o'z navbatida quyidagi qismlarga bo'linadi: talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; Markaziy bank oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlar; boshqa banklar oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlar; bankning yopilmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlar; kiska muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar; uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar; chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar; boshqa foizli xarajatlar;

2. Foizsiz xarajatlar esa o'z ichiga quyidagilarni oladi: barcha komission xarajatlar; chet el valyutasidagi zarar; tijorat operatsiyalari bo'yicha xarajatlar; investitsiyalar bo'yicha zararlar; boshqa foizsiz xarajatlar.

¹⁶ Бабаев Ю.А. Теория бухгалтерского учета: Учебник. для вузов. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2009. – 126 с.

¹⁷ Наврўзова К.Н. Банкларда бухгалтерия ҳисоби ва операцион техника. Ўқув қўлланма.- Т.: ТМИ, 2008. - 170 б

3. Operatsion xarajatlar esa o'z ichiga quyidagilarni oladi: ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar; ijara va ta'minot xarajatlari; xizmat safari va transport xarajatlari; ma'muriy xarajatlar; representatsiya va xayriya xarajatlari, eskirish xarajatlari; sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar; ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash; daromad solig'i.

Shu sababli, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda yuqorida ko'rsatilgan majburiy unsurlar bo'lishi lozim.

Bank moliyaviy faoliyati natijasida olingan foyda (zarar) 31200 – «Taqsimlanmagan foyda» balans hisobvarag'i doirasida quyidagi ikkinchi tartibli hisobvaraqlarda aks ettiriladi: 31203–«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)»; 31206 – «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)».

Oldingi moliyaviy yillar davomida bank faoliyati natijasida olingan taqsimlanmagan foyda (zarar) lar hisobi 31203–«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» balans hisobvarag'ida yuritiladi. Ushbu hisobvaraqlarning kreditida 31206–«Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» balans hisobvarag'idan o'tkazilgan bankning sof foydasi summasi, hamda zahira kapitali hisobvarag'idan taqsimlanmagan foydaga o'tkazilgan summalar aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida 31206-balans hisobvarag'idan o'tkazilgan zararlari, e'lon qilingan dividendlar, har xil fond (jamg'arma)larga ajratma summalar aks ettiriladi. Analitik hisob bitta shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

Hisobot yilida bankning moliyaviy faoliyatidan olingan sof foyda, hamda ushbu davr davomida elon qilingan dividendlar hisobi 31206 – «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» balans hisobvarag'ida yuritiladi. Ushbu hisobvaraqlarning kreditida hisobot yilida bank tomonidan olingan foyda summasi, 31203–«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» balans hisobvarag'iga o'tkazilgan zararlari summasi, hamda noto'g'ri e'lon qilingan dividendlarning qaytarilishi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida hisobot yilida bank tomonidan olingan zararlari, 31203–«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» balans hisobvarag'iga o'tkazilgan foyda, e'lon qilingan dividendlar, hamda zahira kapitaliga o'tkazilgan summalar aks ettiriladi. Analitik

hisob sof foyda va dividendlar bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi. Joriy yilning sof foydasi quyidagicha aniqlanadi:

a) Hisobot davrining yakunida daromad hisobvaraqlari yopilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi beriladi: Dt 4xxxx–tegishli daromad hisobvaraqlari, Kt 31206–«Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)».

b) Hisobot davrining yakunida xarajat hisobvaraqlari yopilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi beriladi: Dt 31206–«Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)», Kt 5xxxx–tegishli xarajatlar hisobvaraqlari.

Hisobot yilinig yakunida (31 dekabr) «Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)» hisobvarag'i qoldig'i quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan yopiladi: Dt 31206–«Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)», Kt 31203–«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)». SHu davrdagi sof foyda yoki zarar, qo'shimcha satrlar, sarlavhalar va yakunlar foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda BHMS¹⁸ga muvofiq ravishda ko'rsatiladi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Bankning amaliyot boshqarmasida foyda va zararlar tarkibi¹⁹
(mln. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2010 yil
Foiz daromadlar	19,086
Foiz harajatlar	(5,053)
Foiz hisobidagi sof foyda	14,051
Bankka to'langan foiz va komissiya to'lovlari	11,194
Bank tomonidan to'langan foiz va komissiya	(921)
Sof komission foyda	10,273
Qimmatbaho qog'ozlar amaliyotidan olingan foyda	14,702
Korporativ qimmatli qog'ozlardan olingan foyda	301
Kurs farqi hisobiga sof zarar	(1,230)
Boshqa daromadlar	323
Ma'muriy harajatlar	(19,754)
Io'qotilish ehtimoli bo'lgan zahiralar va chikarilish	(3,194)
Soliq to'langunga qadar foyda	15,472
Daromad solig'i	(7,724)
Sof foyda	7,748

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси банк тизмида бухгалтерия ҳисобини юритишга оид қонунчилик ҳужжатлари тўплами. - Т.: Ўзбекистон, 2003. - 272 бет

¹⁹ 2008-2010 йилларда АТ "Савдогар банк"нинг амалиёт бошқармаси бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи маълумоти асосида муаллиф томонидан ҳисоб-китоб қилинди

Tijorat banklari moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarda daromadlar va xarajatlar turlari yoki faoliyat turlari bo'yicha tasnif qilish yo'li bilan daromadlar va xarajatlarni tahlil qilib berishi kerak.

Xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha tasnif qiladigan tijorat banklari xarajatlarning turlari bo'yicha qo'shimcha axborotni, jumladan eskirish (amortizatsiya) xarajatlarini, xodimlarni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni, xom ashyo va xalq iste'moli mollaridan foydalanish xarajatlari bo'yicha qo'shimcha axborotlarni ochib berishga majburdir. Shunday qilib, tijorat banklarida foyda va zararlarni to'g'ri hisobotlarda aks ettirish hamda uni tuzishda dastlabki hisob ma'lumotlarining qanchalik to'g'ri va asosli rasmiylashtirishiga bog'liqlidir.

Chunki ushbu hisobotda bank faoliyatining kunlik natijasi (oylik, choraklik, yillik) aks ettiriladi. Bu esa, manfaatdor shaxslarning (ta'sischi) bank to'g'risida ya'ni moliyaviy holati va barqarorligi bo'yicha aniq ma'lumotlar olish imkoniyatini, shuningdek, olingan ma'lumotlardan qoniqish hosil qilgandan so'ng qo'shimcha mablag' (ulushi)larini kiritishga harakat qiladilar. Bu esa, tijorat banklari faoliyatini yanada barqarorlashtirishga yordam beradi.

3-Bob.AT "Savdogar bank"ning amaliyot boshqarmasida xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish masalalari

3.2. Bankning amaliyot boshqarmasida operatsion xarajatlar hisobi va ularni takomillashtirish masalalari

Banklar o'z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar qilingan smeta mablag' ajratmalari doirasida amalga oshiradilar. Bankning operatsion xarajatlari smetasi bo'yicha kreditlarni bank rahbari tasarruf etadi. Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta mablag'lari hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrigacha o'tkazilishi lozim²⁰.

Bankning operatsion xarajatlari hisobi banklar tomonidan balansda quyidagi hisobvaraqlarda to'g'ri yuritilishi tekshiriladi: «Ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar»; «Ijara va saqlash»; «Xizmat safari va transport xarajatlari»; "Ma'muriy xarajatlar" va shu kabilar. Bu hisobvaraqlarga faqat hujjatlar bilan tasdiqlangan va amalda qilingan xarajatlar kiritilishi aniqlanadi.

Kelgusi yillar smetalari hisobidan bankning operatsion xarajatlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobi - "Puli oldindan to'langan xarajatlar" hisobvarag'ida yuritilishi aniqlanadi. Bu hisobvaraqa oxirida ta'tilga ketayotgan xodimlarga to'langan ish haqi xususan kelasi yilga taalluqli to'lovlar, kelasi yil uchun gazetalarga obuna bo'lish xarajatlari, kelgusi yillar smetalari hisobidan o'rni qoplanishi kerak bo'lgan ijaraga olingan binolarni kapital ta'mirlash xarajatlari summasi va shu kabilar o'tkazilishi tekshiriladi.

Yangi yilning dastlabki kunlarida shu yilga taalluqli xarajatlar. 19925 «Oldindan to'langan xarajatlar» hisobvaraqdan Markaziy bankdagi quyidagi tegishli ikkinchi tartib hisobvaraqlariga 56102 "Ish haqi", 56418 "Davriy nashrlar, kitoblar, gazetalar", 56216 "Ijaraga olingan asosiy vositalarni ta'mirlash" - hisobvaraqlarga va tijorat banklaridagi boshqa tegishli hisobvaraqlarga o'tkazilganligi tekshirib ko'riladi.

²⁰ ЎзР МБ томонидан тижорат банкларининг чоп этиладиган йиллик молиявий ҳисоботларига қўйиладиган талаблар тўғрисидаги низом. 02.10.2004й.

Summalari hisobidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar qilinmaydigan, ishdan bo'shaganda to'lanadigan nafaqalarni davlat ijtimoiy sug'urtasiga doir badallar bo'yicha hisob-kitob qaydnomalarini ajratib ko'rsatish uchun bu nafaqa to'lovlari hisobini alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritish tartibi tekshiriladi.

Operatsion xarajatlarni rasmiylashtirishda 29802 -hisobvaraqdagi bo'laklarni hisobga olgan holda smeta mablag'ning qoldig'i ushbu chiqimni to'lash uchun etarli ekanligini tekshiradi. 56102 "Ish haqi va xodimlar uchun sarflangan boshqa xarajatlar, 56302 "Xizmat safari yo'l xarajatlari" va "Xizmat safari vaqtidagi kundalik xarajatlar" hisobi yuritiladigan shaxsiy hisobvaraqlarning maxsus shaklida yuritilishini nazorat qiladi.

Ish haqi bank xodimlariga faqat ishlangan vaqt uchun va belgilangan muddatlarda, oyiga ikki marta: oyning birinchi va ikkinchi yarmi uchun to'lanishi lozim. Ishchi va xizmatchilarga hisoblangan ish haqining barcha turlari ish haqi fondiga kiritiladi. Bank xodimlarini mukofotlash to'g'risidagi nizomlarga muvofiq ularga beriladigan mukofotlar 56106 - "Bank xizmatchilari uchun imtiyozlar" hisobvarag'ida hisobga olinadi. Bu xarajatlarning barchasi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun qilinganligi va yil oxirida qaysi manba hisobidan qoplanishi tekshirib ko'riladi va ushbu buxgalteriya hisobida o'tkazmasiga mosli ta'minlanganligi aniqlanadi: Dt – 31206, Kt - 56102, 56106, 56195 va boshqalar.

56200 – «Ijara va xo'jalik xarajatlari» turli-tuman bo'ladi, ular yil oxirida bankning qaysi manba hisobidan yopilishi, ya'ni 56300 - Safar va transport xarajatlari. Bu xarajatlar ham bank faoliyati asosiy xarajatlardan biri hisoblanib, yil oxirida qaysi manba hisobidan yopilishi: Dt – 31206, Kt - 56300 hisobvarag'ida hisobga olinganligi tekshirib ko'riladi.

56400 - Ma'muriyat xarajatlari. - by xarajatlar bank faoliyatini reklama qilish, kontselyariya, ofis, pochta, telefon, faks xizmatlaridan foydalanish, gazeta, jurnallarga obuna bo'lish, bank uchun zarur blankalarni tipografiyadan chiqarish bilan bog'liq xarajatlardan iborat bo'ladi. Bu xarajatlar ham yil oxirida bank qaysi manba hisobidan yopilishi aniqlanadi. 56500 - Prezentsiya va soliqlar; 56600 -

Amortizatsiya (eskirish) xarajatlari; 56700 - Suturta va soliqlar; 56800 - Ehtimolli zararlarni baholash; 56900 - Daromad solig'ini baholash. Yuqorida yozib o'tilgan bankning operatsion xarajatlarini barchasi yil oxirida qaysi manba hisobidan yopilishi va hisobvaraqlar bo'yicha xarajatlar bosh bank belgilagan smetalar chegarasida amalga oshirilganligi aniqlanadi.

Demak, operatsion xarajatlar bank faoliyatining xarajatlarini asosiy qismi bo'lib hisoblanadi. Ushbu operatsion xarajatlarni 2009-2010 yilda AT «Savdogarbank»ning amaliyot boshqarmasining viloyat filialini moliyaviy natijalarini tekshirib ko'ramiz (6 -jadvalga qarang).

6-jadval.
2009-2010 yillarda bankning amaliyot boshqarmasida operatsion xarajatlar tarkibi
(mln.so'mda)

№	Ko'rsatkichlar nomi	2009y	2010y	O'zgarishi (+,-)
1	Ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar	41956.9	32542.5	-9414.4
2	Ijara va saqlash xarajatlari	11070.7	6021.9	-5048.8
3	Xizmat safari va transport xarajatlari	859.9	356.1	-503.8
4	Ma'muriy xarajatlar	7941.6	7744.8	-196.8
5	Prezentatsiya va ko'ngil oluvchi tadbirlar uchun xarajatlar	7774.6	1061.2	-6713.4
6	Eskirish xarajatlari	15932	14517	-1415
7	Sug'urta, soliqlar va boshqa xarajatlar	13581.9	8383.2	-5198.7
	Operatsion xarajatlarning jami	99117,6	70626,7	-28490,9

6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning operatsion xarajatlari o'tgan yilga nisbatan 28490.9 mln. so'mga kamaygan. Operatsion xarajatlarda ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlarning salmog'i o'tgan yilga nisbatan 9414.4 mln. so'mga kamaygan.

Bundan tashqari prezentatsiya hamda sug'urta, soliqlar va boshqa xarajatlar ham o'tgan yilga nisbatan 11912.1 mln. so'mga kamaygan. Bunday tarzda bank xarajatlarini kamayishi ijobiy holat deb baholaymiz. Bank bo'limi operatsion xarajatlari maqsadga muvofiq kamaygan. Umumiy bank xarajatlarini yagona jadval ko'rinishida tahlil etsak qaysi turdagi bank xarajatlarini ulushini ko'proq qaysi xarajatlarga taalluqli ekanligini ko'ramiz (7 -jadvalga qarang).

2009-2010 yillarda bankning amaliyot boshqarmasida xarajatlarning tarkibi va ularning dinamikasi

(mln. so'mda)

№	Ko'rsatkichlar nomi	2009y		2010y		O'zgarishi	
		Summa	%	Summa	%	Summa	%
1	Foizli xarajatlar	208159.2	60.4	85248.8	47.9	-122910.4	-12.5
2	Foizsiz xarajatlar	37117.6	10.8	22059.3	12.4	-15058.3	+1.6
3	Operatsion xarajatlar	99117.6	28.8	70626.7	39.7	-28490.9	+10.9
Jami bank xarajatlari		344394.4	100	177934.8	100	-166459.6	-

7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning umumiy xarajatlari o'tgan yilga nisbatan 166459,6 mln. so'mga kamaygan. Bank moddalari bo'yicha o'zgarishlar turlicha ko'rinishga ega. Umumiy holda bank xarajatlarini barcha turlari bo'yicha xarajatlar summada kamaygan, ammo foizlar bo'yicha salmog'i ko'paygan.

O'tgan yilga nisbatan umumiy bank xarajatlari salmog'ida foizli xarajatlar 12.5 punkt kamaygan. Bankning boshqa xarajatlarining salmog'i, ya'ni foizsiz xarajatlar 1.6 punktga, operatsion xarajatlar 10.9 punktga ko'paygan.

Demak, bankning umumiy xarajatlarida xarajatlar summasi kamaygan, ammo ularning umumiy foiz sifatida salmog'i 12.5 foizga ko'paygan. Ya'ni bank xarajatlarida operatsion xarajatlar salmota foizlarga nisbatan 10.9 punktga ko'paygan.

Tijorat banklari o'z faoliyatida bank xarajatlarini hisoboti tuzilgan shartnoma tartiblari asosida aks ettiriladi. Bundan tashqari banklar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxat qilib beriladi. Bu hisobot turli xil bo'ladi: kunlik hisobotlar; oylik hisobotlar; chorakda tuziladigan hisobotlar; yillik hisobotlar²¹.

Demak, yil oxirida barcha hisobotlar umumlashtiriladi va yillik hisobot shaklida taqdim etiladi. Hisobotlar yordamida bankning real xarajatlari aks ettirilishi tekshiriladi. Ushbu hisobotlar yuqori bank muassasalariga topshirilishi va

²¹ Банкларнинг ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисоботлари тўғрисидаги Низом. 19.07.2003й

shundan so'ng yuqori banklarga kelib tushgan buxgalteriya hisoboti tekshiriladi, tahlil qilinadi va uning asosida zarur boshkaruv qarorlari qabul qilinadi. Hisobot ma'lumotlarida nomuvofiqlik borligi aniqlansa, buning sabablari qisqa muddatda aniqlanishi va tartibga solinishi lozim.

3.3. AT «Savdogarbanki» amaliyot boshqarmasida xizmatlar bo'yicha moliyaviy natijalar hisobi va uni mukammallashtirish masalalari

Mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat banklari moliyaviy natijalarini yakuniy holati foyda yoki zarar bilan tugallanadi. Umuman olganda barcha tijorat banklari o'z ish faoliyatining yakunlarini foyda bilan tugatishga harakat qiladilar. Bank muassasalarining moliyaviy natijalarini yakunida asosiy ko'rsatkich foyda hisoblanadi.

Bank muassasalarining asosiy ish tamoyili kamroq xarajat qilib, ko'proq daromad olish hamda moliyaviy natijalar yakunida maksimal foyda olish hisoblanadi. Bank tizimini erkinlashtirish munosabati bilan banklar davlat tasarrufidan chiqarilishi sababli xarajatlarni minimallashtirishga qaratilishini taqozo etmoqda. Auditor bank faoliyati natijasini audit qilishda olingan barcha daromadlardan qilingan xarajatlarni chegirib tashlash orqali oxirgi natija foyda yoki zarar aniqlanadi.

Bank faoliyati asosan 2 ta asosiy, moliyaviy hisobotlar, ya'ni buxgalteriya balansi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi moliyaviy hisobotlarni audit qilish orqali yakunlanadi²².

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar, boshqalar bir xil sharoitda ishlasada, joriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit xatari bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar. Bank operatsiyalari xarajatlarini aniqlash oson emas.

²² Маренков Н.Л. Международные стандарты бухгалтерского учета, финансовой отчетности и аудита в Российских фирмах. - М.: Едиториал УРСС, 2009. - 143 с.

Chunki, ular bank mahsulining keng turlarini aks ettiradi. Demak, moliyaviy natijalarda bank xarajatlarini salmog'ini tekshirish etish maqsadga muvofiq bo'ladi (8-jadvalga qarang).

8-jadval.

2009-2010 yillarda bankning amaliyot boshqarmasida foyda va zararlar tarkibi va ularning o'zgarishi

(mln.so'mda)

№	Ko'rsatkichlar nomi	2009y	2010y	Uzgarishi (+,-)
1	Foizli daromadlar	176854,4	226859,2	50004,8
2	Foizli xarajatlar	208159,2	85248,8	-122910,4
3	Foizsiz daromadlar	286229,7	53698,3	-232531,4
4	Foizsiz xarajatlar	37117,7	22059,3	-15058,4
5	Operatsion xarajatlar	99117,7	70626,8	-28490,9
6	Kreditlar va bo'naklar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar	28584,1	24859,3	-3724,8
7	Daromad solig'i	13033,2	25911,7	12878,5
8	Hisobot davridagi sof foyda (zarar) (1-2+3-4-5-6-7=8)	77072,2	51851,6	-25220,6

8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning yakuniy natijasi foyda bilan tugallangan. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan yilda bank sof foydasi 77072,2 mln. so'm bo'lgan bo'lsa, joriy yilda foyda 51851,6 mln. so'mni tashkil etgan. Demak, joriy davrda bank foydasi o'tgan yilga nisbatan 25220,6 mln. so'mga kamaygan.

Banklar o'z faoliyatida 2 ta vazifani bajaradi. Bular, vositachilik, ya'ni kredit berish va olish; mijozlarga xizmat ko'rsatish, axborotlar tahlili, marketing va boshqalar.

Bank passivlarini va o'z mablag'larini daromad aktivlariga transformatsiyalash nuqtai nazaridan, bankning birinchi vazifasini ham ishlab chiqarish jarayoni sifatida tekshirib chiqish mumkin.

Foydali daromadlar an'anaviy tarzda o'z ichiga barcha aktivlar bo'yicha olingan ustama foizlar va komission to'lovlarni olsa, foizli xarajatlar - barcha majburiyatlar bo'yicha to'langan foizlar summasi qanchali to'g'ri va aniq aks ettirilishini tekshirib ko'rish lozim.

Foizlar to'lovi bo'yicha umumiy xarajatlar barcha mablag'lar manbalari,

ya'ni omonat hisoblaridan tortib to veksellar hamda aktsiyadorlik obligatsiyalariga sarflanadigan foizli sarf-xarajatlargacha o'z ichiga oladi. Zahiraga ajratmalar kelgusida kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallab qo'yiladi.

So'nggi paytlarda anchagina ahamiyati ortib borayotgan foizli daromadlarga turli bank xizmatlari uchun ajratiladigan komissiyalar (hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar, trast operatsiyalar va hokazolar) yoki bir vaqtning o'zida imzolanadigan bitimlardan keladigan daromadlar (filiallarni sotish va hokazolar) kirsas, foizsiz xarajatlarga maoshlar va qo'shimcha to'lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish, shuningdek, boshqa operatsiya xarajatlari kiritiladi.

Moliyaviy jihatdan barqaror banklardagi xarajatlari tarkibi quyidagi ko'rinishda bo'ladi: ish haqi va mukofotlar - 20 foiz, bino va uskunalar uchun xarajatlari -5 foiz, boshqa xarajatlari -10 foiz. Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi²³.

Bankning sof foizli foydasi uning vositachilik faoliyatini aks ettirsa, sof foizsiz foydasi uning ishlab chiqarish rolini namoyon etadi. Sof foizli foydadan kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoshyuvchi mablag'larni ajratgan holda, biz kreditlardagi yo'qotish xarajatlari tashqari hisoblangan sof foydaga ega bo'lamiz. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, bank xarajatlari hisobi auditi tizimida 3 ta umumiy operatsiyalar xarajatlari ko'rinishi mavjud: bular -foizlar to'lovi bo'yicha xarajatlari, kreditlardan yo'qotishlarni qoplash uchun rezerv xarajatlari va foizsiz xarajatlari. Yuqoridagi xarajatlari bilan bog'liq tarzda 3 xil xatarlari mavjud, ya'ni foizlar, kredit va operatsiyalarning samaradorlik xatarlaridir.

Foizlar bo'yicha xatarlarni nazorat qilish qobiliyati banklardagi yuqori ish samaradorligining eng muhim tomoni hisoblanadi. Agar passivlardagi depozitlari ulushi, tashqi omillar bilan belgilanadigan kreditlari sifati va foiz stavkalari aniq bo'lsa, biz foizsiz xarajatlari tarkibi hamda ularning bank faoliyatiga ta'sirini ham aniqlashimiz mumkin bo'ladi.

²³ Умаров З. Тижорат банкларида бухгалтерия ҳисоби. –Т.: “Бозор, пул, кредит” журнал. 2005. 45-46 бет

Bank ishi samaradorligi uzviy bog'liq bo'lgan xarajatlarni nazorat qilishning yoki kamaytirishning uch asosiy yo'nalishi mavjud: asosiy kapitalga investitsiyalarni kamaytirish; ortiqcha (qo'shimcha) chiqimlar va boshqa belgilanmagan xarajatlarni («boshqa xarajatlar»); shuningdek, xodimlarga ketadigan xarajatlarni nazorat qilish. Dastlabki ikki yo'nalish bino, uskunalar va hokazolar bo'yicha xarajatlarni kamaytirishni ko'zda tutadi. Uchinchi yo'nalish jiddiy holatlarda qo'llanilib, bo'limlarni yopish, xizmatchilarni qisqartirish choralari ko'riladi. Lekin bunda mehnatga haq darajasi saqlanib qoladi.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, audit o'tkazishda bank xarajatlarining asosiy ko'rinishlari bo'lgan:

- 1) foizli xarajatlar, ular foizlar tsikli va passivlar tarkibi bilan bog'liq;
- 2) kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash, iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq o'z zimmasiga olgan tavakkalchshshk hamda portfel diversifikatsiyasi bo'yicha xarajatlar;
- 3) operatsiyalar faoliyati samaradorligi bilan bog'liq foizsiz xarajatlar salmog'ining kamligi banklarning foidasini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Banklar uchun konsolidatsiya qilingan resurslar bo'yicha xarajatlarni uzluksiz nazorat qilib borish juda muhimdir. Xarajatlarga likvidlilik singari har qanday ustama foiz o'zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta'sir qiladi. O'z navbatida, bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadlilikiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Bunday o'zgarishlarni soni va hajmi kuchli raqobat sharoitida o'sib bormoqda.

Xulosa va takliflar

Respublikamizda bank tizimining uzluksiz rivojlanishi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ob'ektiv zaruriyat bo'lib, bu o'z navbatida tijorat banklari faoliyatini uzluksiz nazorat qilishni va ularni samarali boshqarish uchun zarur axborotlar bazasini vujudga keltiruvchi tizim sifatida buxgalteriya hisobi va hisobotini, uning uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

Har bir tijorat banki moliyaviy hisobotlar orqali o'z faoliyatini o'zi nazorat qilib bormog'i lozim. Shuningdek, buxgalteriya hisobi va shu asosda tuziladigan moliyaviy hisobotlari bankning o'zi uchun, shuningdek uning ma'lumotlari Davlat tartibga solish organlari uchun ham tijorat banklarining moliyaviy ahvoli, pul muomalasining holati, xalq xo'jaligidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar holatini o'rganish uchun o'ta muhimdir.

Yuksak rivojlangan mamlakatlardagi tijorat va xususiy banklarning mijozlarga xizmat ko'rsatish borasidagi tajribalarini sinchiklab, yanada keng o'rganish, xo'jalik sub'ektlari va aholining banklarga nisbatan ishonchini oshirishga harakat qilish kerak. Bu vazifa ko'plab nizom va me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqishni, avvalo, bank xizmatchilarining ma'suliyati va madaniyatini oshirishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, bank tizimini rivojlantirish va ularni xalqaro tajriba maydonidan olingan nazariy hamda amaliy bilimlar natijalari bilan hisobchilik tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu boisdan, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, tijorat banklarida xarajatlar hisobi va ularni takomillashtirish hamda bank faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonida tijorat banklarining o'rne, ahamiyati tadqiq qilindi hamda ularda buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari atroflicha tadqiq etildi. Bunda tijorat banklarida xarajatlar hisobi va ularni shakllantirishning qonuniy va me'yoriy hujjatlar talablariga mosligini ta'minlash hamda ushbu hujjatlar asosida

tijorat banklari o'zlarining «Hisob siyosatini» ishlab chiqishlari muvofiq deb topildi;

2. tijorat banklarida xarajatlar hisobini tashkil qilish bilan bog'liq mavjud muammolar aniqlandi, mazmuni, mohiyati tadqiq etildi hamda ular nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, ularga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan iqtisodiy ta'riflar tahlil etildi hamda berilgan ta'riflar mazmunan va shakllan bir-birini to'ldirib boradi degan xulosaga keldik;

3. AT «Savdogarbanki» amaliyot boshqarmasida bank xizmatlari bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mos kelishi va qo'llanilgan usulning foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun quyidagilarga nisbatan hisob siyosatini yoritish kerak bo'ladi: daromadning asosiy turlarini tan olish; investitsion va tijorat maqsadida sotib olingan qimmatli qog'ozlarni baholash; kreditlar va avanslar bo'yicha zararlarni aniqlash va ularni hisobdan chiqarish usuli; bank umumiy tavakkalchiliklariga hisoblangan foizlarni aniqlash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish usuli.

4. AT «Savdogarbanki» amaliyot boshqarmasida moliyaviy hisobotlarni tuzishda 0-sonli «Hisobotlarni tuzish va tayyorlash tamoyillari» MHXSdagi ehtiyotkorlik, aktivlar va majburiyatlarni haqiqiy baholash, hamda hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi tamoyillariga asosan tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tadqiqotlar natijasida bank hisobotiga quyidagicha yangicha ta'rif berildi: «Bank hisobotlari - bu hisobot davriga bo'lgan bankning moliyaviy, mulkiy holatini ularning iqtisodiy mazmuniga qarab ma'lum tartibda guruhlashtiradigan va o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan shakllarda aks ettiradigandan miqdoriy xarakteristika hamda ko'rsatkichlarning yagona tizimidir».

5. AT «Savdogarbanki» amaliyot boshqarmasida olingan daromad va xarajatlarning tarkibi alohida vujudga kelish joylari bo'yicha o'rganilib, ularni buxgalteriya hisobida daromad va xarajat sifatida tan olish mezonlari ham tahlil etildi. Bunda bank operatsiyalarining amalga oshirilgan paytidan boshlab daromad

va xarajat sifatida tan olinishi asoslandi.

6.AT “Savdogarbanki” Amaliyot boshqarmasida xizmat turlari bo'yicha olingan natijalar foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning «Boshqa foizli daromad» bo'limidagi summa «Umumiy foizli daromad» summasining 5 foizidan oshib ketmasligi lozimligi asoslandi. «Boshqa foizli xarajatlar» bo'limidagi summa «Umumiy foizli xarajatlar» summasining 5 foizidan oshib ketmasligi lozim. Ushbu chegaradan oshib ketgan hollarda, tijorat banklari hisobotiga qo'shimcha satr qo'shib, katta miqdordagi summani alohida aks ettirishi lozimligi aniqlandi. Bu hisobotdan foydalanuvchilar uchun to'liq ma'lumot olish imkonini yaratishi asoslandi.

7.AT “Savdogarbanki” amaliyot boshqarmasida xarajatlar hisobi va ularni takomillashtirish kelgusida bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hamda samaradorlikka erishishga qaratilgan muhim chora-tadbirlardan biri hisoblanadi. Shu boisdan, bank samaradorligiga ta'sir etuvchi xarajatlarni nazorat qilishning yoki kamaytirishning uch asosiy omili asoslab berildi: ularga, asosiy kapitalga investitsiyalarni kamaytirish; ortiqcha (qo'shimcha) chiqimlar va boshqa belgilanmagan xarajatlarni («boshqa xarajatlar»); xodimlarga ketadigan xarajatlarni nazorat qilish.

Dastlabki ikki omil bino, uskunalar va hokazolar bo'yicha xarajatlarni kamaytirishni ko'zda tutadi. Uchinchi omil jiddiy holatlarda qo'llanilib, bo'limlarni yopish, xizmatchilarni qisqartirish choralari ko'riladi, lekin bunda mehnatga haq darajasi saqlanib qoladi.

Shunday qilib, mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari AT “Savdogarbanki” amaliyot boshqarmasida xarajatlar hisobi va ularni takomillashtirishda uslubiy ko'rsatma sifatida foydalanish, shuningdek, bank faoliyatini boshqarishda ijobiy samaradorlikka erishishiga yordam beradi deb hisoblaymiz.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Президенти фармонлари ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамаси қарорлари

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Тошкент, Ўзбекистон. 2001.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги қонуни. –Т.: 1996.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Банк ва банклар фаолияти тўғрисида»ги қонуни.-Т.: 1996 й.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Марказий банк тўғрисида»ги қонуни. – Т.: 1995й.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2010 йил 14 декабрдаги Р-3539-сонли “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили” Давлат Дастури
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти ПП-1213 “Ўзбекистон Республикасининг 2010 йилга инвестицион дастури ҳақида”ги Қарори
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 12 июлдаги ПҚ-670 сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Банкларнинг капиталлашувини янада ошириш ва иқтисодиётни модернизациялашдаги инвестиция жараёнларида уларнинг иштирокини фаоллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги Қарори
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 6 апрелда Ўзбекистон республикаси Президентининг “Банк тизимининг молиявий барқарорлигини янада ошириш ва инвестициявий фаоллигини кучайтириш чора- тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1317- сонли Қарори
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 ноябрда қабул қилинган “2011-2015 йилларда республика молия-банк тизимини янада ислоҳ қилиш ва барқарорлигини ошириш ҳамда юқори халқаро рейтинг кўрсаткичларига эришишнинг устувор йўналишлари тўғрисида”ги ПҚ-1438 сонли Қарори

10. “Фуқароларнинг Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларидаги омонатларини ҳимоялаш кафолатларини таъминлашга оид қўшимча чор-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4057-сонли Фармони. –Т.: 28.11.2008й.

II. Президент асарлари

11. ЎзР Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи, 2011 йил 22 январь, № 16 (5183).
12. Каримов И. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. -Т.: “Ўзбекистон”. 2009й. -56 бет
13. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби. Президент Ислам Каримовнинг 2008 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2009 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи рўзномаси 2009 йил 14 февраль, № 33-34 (4696-4697)
14. Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. -Т.: “Халқ сўзи” газетаси. (3828)-сон. – Т.: 2006.
15. Каримов И.А. Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор. Халқ сўзи, 2006 йил 25 февраль.

III. Соҳага оид меъёрий ҳужжатлар

16. Ўзбекистон Республикаси банкларида КБТЭБнинг бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги йўриқнома. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги

томонидан 15.07.2005 йилда 1496-сон билан рўйхатга олинган (янги таҳрири).

17. “Ўзбекистон Республикасида нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тўғрисидаги” Низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 13.12.2004 йилда 1122-2-сон билан рўйхатга олинган. (янги таҳрири).
18. “Бухгалтерия ҳисобида ҳужжатлар ва ҳужжатлар айланиши тўғрисида” низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 14.01.2004 йилда 1297-сон билан рўйхатга олинган.
19. “Ўзбекистон Республикасида асосий воситаларнинг бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги” йўриқнома. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 17.12.2004 йилда 1134-сон билан рўйхатга олинган. (янги таҳрири).
20. “Ўзбекистон Республикасида номоддий активларнинг бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги” йўриқнома. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 14.01.2003 йилда 1199-сон билан рўйхатга олинган.
21. ЎЗРМБ нақд чет эл валютасига оид операцияларни амалга ошириш қоидалари. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 15.04.2004 йилда 957-1-сон билан рўйхатга олинган.
22. Тижорат банкларида кредитларнинг бухгалтерия ҳисоби тартиби тўғрисидаги низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 17.12.2004 йилда 1435-сон билан рўйхатга олинган.
23. Тижорат банкларида фоизларни ҳисоблаш тўғрисидаги низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 30.01.2004 йилда 1306-сон билан рўйхатга олинган.
24. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларида бухгалтерия ҳисобининг ҳисоб варақлари режаси. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 13.08.2004 йилда 773-17-сон билан рўйхатга олинган (янги таҳрири).

25. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тижорат банкларининг чоп этиладиган йиллик молиявий ҳисоботларига қўйиладиган талаблар тўғрисидаги низом. 02.10.2004.
26. Тижорат банкларида қимматли қоғозлар операциялари бўйича бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 28.03.2003 йилда 662-3-сон билан рўйхатга олинган.
27. Ўзбекистон Республикаси банк тизмида бухгалтерия ҳисобини юритишга оид қонунчилик ҳужжатлари тўплами. - Т.: Ўзбекистон, 2003. - 317 б.
28. Банкларнинг ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисоботлари тўғрисидаги Низом. 19.07.2003 й.
29. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан боғлиқ операцияларига доир қонунчилик ҳужжатлари тўплами. – Ўзбекистон, 2003.
30. ижорат банклари томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудида факторинг операцияларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 03.08.2000 йилда 953-сон билан рўйхатга олинган.
31. Ўзбекистон Республикаси банклари томонидан молиявий лизингни ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги 20.07.1999 йилда 776-сон билан рўйхатга олинган.
32. Ўзбекистон Республикаси банкларида бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи тўғрисидаги йўриқнома. Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 16.11.1998 йилда 533-сон билан рўйхатга олинган.

IV. Асосий адабиётлар

33. Маҳмудов Н.М, Маджидов Ш.А. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2010. – 86 б.
34. Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. – М.: ФОРУМ, 2010. – 192 с.

35. Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 – 656с. 2 экз.
36. Ендовицкий Д.А. Учет ценных бумаг: Учебное пособ. - 2-е изд стер.- М.: КНОРУС, 2009.- 336 с.
37. Воронин В.П. и др. Учет ценных бумаг: учебное пособие. –М.: КНОРУС, 2009. – 336 с.
38. Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазавой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008. - 400с.
39. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пособ. – М.: «Дашков и К », 2008. – 288 с.
40. Курсов В.Н. Бухгалтерский учет в комерческом банке. -Москва.: 2008, стр. 209
41. Муругова И.А. Операционная техника и учет в банках. Учебный пособие. –Т.: ТФИ, 2008. -36 стр
42. Усатова Л.В., Серошин М.С. Бухгалтерский учет в комерческих банках. - Москва.: 2007, стр. 399
43. Усатова Л. В., Сероштан М. С, Арская Е. В. Бухгалтерский учет в коммерческих банках: Учеб. пособ. — 3-е изд., перераб. и доп. — М.: «Дашков и К°», 2007. — 404 с.
44. Мощенко Н.П. Международные стандарты учета и финансовой отчетности: Учеб. пособие. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 272 с.
45. Абдувахидов Ф. Тижорат банкларида бухгалтерия ҳисоби. –Т.: Ўқув қўлланма. 2006, 160 бет
46. Шпаков Л. В., Барулина Е. В. Бухгалтерский учет как пользоваться МФСО. «Альфа-Пресс». –М.: 2006. -37 с

V. Қўшимча адабиётлар

47. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Жахон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича ўқув

- қўлланма. Тузувчилар: Б.Ю. Ходиев, А.Ш.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тухлиев. –Т.: Иқтисодиёт, 2009. -120 б.
48. Подольский В.И., Савин А.А. Аудит: учебник. – М.: Юрайт, 2010.–605с.
 49. Двадцать вторые международные Плехановские чтения. Тезисы докладов. –Москва.: 2009, 10 апреля 2009г
 50. Мерцалова А.И. Учет операционная деятельность в кредитных организациях: кассовые, расчетные, депозитные и кредитные операции: учебное пособ.- М.:КНОРУС, 2009.- 356 с.
 51. ИONOBA A.Ф., TapacOBa H.A. Учет и анализ внешнеэкономической деятельности : учеб.- практ. пособ.- М.: ТК Велби, 2009.- 352 с.
 52. Учет, анализ и аудит внешнеэкономической деятельности: Учеб. пособие / Под ред. проф. В.И Бариленко. - М.: ИНФРА-М, 2009.- 458 с.
 53. Жарковская. Е.П. Банковское дело: Учеб. - М: «ОМЕГА -Л», 2008 – 476 с.
 54. Курсов В.Н., Яковлев Г.А. Бухгалтерский учет в коммерческом банке: Новые типовые бухгалтерские проводки операций банка: Учеб. пособ. — 10-е изд., испр. и доп. — М.: ИНФРА-М, 2008. — 277 с.
 55. Черкасов В.К. Финансовый анализ в коммерческом банке. Учебное пособие для вузов. - М.: Изд. «Консалтбанкир», 2006. - 320 с.
 56. Умаров З. Тижорат банкларида бухгалтерия ҳисоби. –Т.: “Бозор, пул, кредит”. 2010.
 57. Маматов З.Т. Хўжалик юритувчи субъектлар молиявий ҳисоботларни аудит қилишнинг назарий ва услубий асослари. –Т.: ЎзР Банк-молия академияси. Док. дисс. 2005. -310 бет
 58. Омонов А.А. Банк капиталини самарали бошқариш масалалари. Ном. дисс. -Т.: ЎзР Банк-молия академияси, 2005.-145 бет
 59. “Ўзбекистон Республикаси банк молия тизимларида ислохотларни чуқурлаштириш муамолари” мавзuidaги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари ЎзР БМА “Молия” 2005.

VI. Даврий нашрлар, статистик тўпламлар ва ҳисоботлар

60. «Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси» журнал. –Т.: 2007-2011 йиллар
61. «Бозор, пул ва кредит» журнал. –Т.: 2007-2011 йиллар
62. Банк ахборотномаси. Газетаси. 2007-2010 йиллар
63. Ўзбекистоннинг 2010 йилдаги ижтимоий-иқтисодий ривожланиши кўрсаткичлари. –Т.: Ўзбекистон, 2011.

VII. Интернет сайтлари.

64. www.bankclub.ru/rankings-bk.htm По активам
65. www.bankclub.ru/rankings-bkp.htm По капиталу
66. «Norma» 2011.
67. «Pravo» 2011.